

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**



QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

IQTISODIYOT FAKULTETI

«IQTISODIYOT» KAFEDRASI

«HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI»

«Iqtisodiyot» kafedraasi mudiri
_____ dots. A.I.Raxmatullayev
«__» _____ 2015 yil

«TASDIQLAYMAN»

«Iqtisodiyot» fakulteti dekani
_____ i.f.d., prof. A.F.Xurramov
«__» _____ 2015 yil

**“Ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda kichik biznesning o‘rni
(Yakkabog‘ tumani iqtisodiyot bo‘limi misolida)”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BALARDI: «Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)»
bakalavr ta’lim yo’nalishi IV-kurs I-462guruh
talabasi _____ Raxmonov Sardor

ILMIY RAHBAR:
«Iqtisodiyot» kafedraasi dotsenti
_____ N.M.Djalilova

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi
_____ sonli bayonnoma «__» _____ 2015 y.

QARSHI – 2015 yil

M U N D A R I J A

Kirish.....	3
I-Bob. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari.....	
1.1. Kichik biznes tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda uning o‘rni.....	
1.2. Kichik biznesning rivojlanishi va xususiyatlari.....	
II-Bob. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda kichik biznesning o‘rnini qiyosiy tahlili.....	
2.1. Kichik biznesning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.....	
2.2. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda kichik biznesning o‘rni.....	
III- Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda kichik biznesni rivojlantirish va takomillashtirish.....	
3.1. Kichik biznesning rivojlanishi bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish.....	
3.2. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda kichik biznesni rivojlantirishda raqobatbardoshlik munosabatlarini qaror toptirish.....	
Xulosa va takliflar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilishi hamda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni boshlanishi bilan oq inson faoliyatining mazmunida ham muhim o'zgarishlar yuz bera boshladi.

“....O'tgan 2014 yilda 500 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko'paydi. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi”ning roli bu borada tobora oshib bormoqda. 2014-yilda mazkur Jamg'arma tomonidan 2 ming 400 ta tadbirkorlik subyektiga o'z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatildi. Jamg'arma ko'magida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 milliard 250 dollar miqdoridagi eksport shartnomalari tuzildi. Mazkur shartnomalar asosida o'tgan yili qiymati 840 million dollardan ziyod tovarlar eksport qilindi. Jamg'arma tomonidan tadbirkorlarga tashqi bozorlarni o'rganish va chet ellik sheriklarni topish, xalqaro tender savdolarida ishtirok etish, shuningdek, eksport shartnomalarini tuzish, xalqaro sertifikatlar, ruxsat berishga oid hujjatlarni olish va bojxona ramiylashtiruv bo'yicha faol yordam berilmoqda. Shu borada ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda kichik va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarurligini barchamiz albatta yaxshi tushunamiz.”¹

Mustaqillik yillari mobaynida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy va huquqiy asoslari yaratilganligini qayd etish joiz. Natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati sezilarli darajada yaxshilandi. Biroq, amalga oshirilgan ishlar ko'lamiga qaramasdan bu sohada hali yechimini kutayotgan muammolar ham bor.

Viloyatimizda, shu jumladan, Yakkabog' tumanida ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda kichik biznesning o'rnini oshirish jarayoni, xususiyatlari va yo'nalishlari majmuini o'rganish, iqtisodiy faoliyati samaradorligini baholash lozim bo'lib, u mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

BMIning maqsadi Ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda **kichik biznesning o'rnini oshirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.** Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi:

¹¹ Каримов И.А. 2015-йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тadbirkorликка кенг йўл очиб бериш-устувор вазифамиздир. 17.01.2015 йил.

- Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirishning nazariy asoslari o'rganish;
- ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda kichik biznesning o'rini qiyosiy tahlil qilish;
- Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda kichik biznesni rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

BMIning obyekti. BMIning obyekti bo'lib, Yakkabog' tumanida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

BMIning tarkibi:BMI kirish, 3ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-Bob. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari.

1.1. Kichik biznes tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda uning o‘rni.

O‘zbekistonda bozor islohotlarining hozirgi bosqichi iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni bo‘lib, unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Respublika fuqorolarining tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish, insonning mustaqil xo‘jalik yuritish tashabbuskorligidan samarali foydalanishga imkon beruvchi iqtisodiy mexanizmni yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy o‘sishi, raqobatbardoshlik va uni jamiyat gullab-yashnashiga olib keluvchi yagona kuch sifatida tan olish ko‘proq ahamiyatga ega. Darhaqiqat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “...kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor konyunkturasi o‘zgarishlari va iste’molchilar ehtiyojlariga nisbatan tez moslasha olishi, uni jahon iqtisodiy inqirozi davrida yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantiradi”⁶. Haqiqatan ham, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tezkorlik bilan hal qilib berishda g‘oyat muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd qilish lozim.

Hozirgi paytga kelib, dunyo aholisidan mehnatga yaroqli qismining qariyb 50 % kichik biznes bilan band bo‘lib, turli tarmoqlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining milliy mahsulotdagi hissasi 33 %dan 66 % gacha, yalpi ichki mahsulotdagi hissasi esa 50 %dan 68 % gacha yetdi⁷.

Odatda, kichik biznes faoliyati tadbirkorlik sohasi bilan ifodalanadi va bu jarayon, birinchi navbatda, uning hajmi kichikligini hisobga oladi. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” va “tadbirkor” tushunchalari qadimgi davrdan boshlab rivojlanishga moyil bo‘lib, har bir jamiyatda, mamlakatda takomillashib bordi. Agar uning rivojlansh evolyusiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u holda, Qadimgi Rimda tijorat ishlari tadbirkorlik, deb yuritilgan va o‘zi uchun, jamiyat a’zolari uchun zarur bo‘lgan mehnat faoliyati bilan shug‘ullangan va qolaversa, ijaraga berish hisobiga daromad ko‘ruvchi inson yuzaga chiqqan.

O‘rta asrlarda “Tadbirkor” tushunchasi bir necha mazmunga ega bo‘lib, birinchidan tashqi savdo bilan shug‘ullanuvchilar; ikkinchidan, paradlar, namoyishlar va turli ko‘ngil ochar kechalarni tashkil qiluvchilar; uchinchidan yirik qurilishlar yoki ishlab chiqarish loyihalari bajarilishiga javob beruvchi shaxslar tushunilgan. XVII asrda tadbirkor odam deb, davlat bilan ma’lum bir hajmdagi ishni bajarish, yoki ma’lum bir mahsulotni avvaldan kelishilgan qiymati bo‘yicha shartnoma asosida bajaruvchi shaxsga aytilgan. Shunday qilib, tadbirkor bo‘lib mulk egasi hisoblanadi, uning faoliyati natijasidan oladigan foydasi yoki ko‘radigan zarari uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsiz ishlashi bilan aniqlanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar bilan bir qatorda tadbirkorlik tushunchasi, uning mohiyati, iqtisodiyotda tutgan o‘rni va shu

⁶Каримов И.А. Асосий вазифамиз — Ватанимиз тарақиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. //Халқ сўзи. 2010 йил 30 январь.

⁷ Грант Р.М. Современный стратегический анализ. 6-с. Изд. / пер. С англ. — СПб.: Питер, 2010. с. 97

kabilar haqida ko'plab talqinlar mavjud. Shu jumladan, bu kategoriyaning birinchi bor ishlatilishi, talqin qilinishi ham diqqatga sazovardir. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda birinchi marta 1732 yilda Parijda tijorat bo'yicha chop etilgan umumiy lug'at kitobida bayon qilingan. Tadbirkor, deb ishlab chiqarish va qurilish obyektida u yoki bu ishni bajarish, bo'yicha o'ziga majburiyat olgan odamni tushunishgan⁸.

Haqiqatdan ham, agar masalaga tarixiy jarayonlar nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, birinchi tadbirkorlar bo'lib, uni tashkil qiluvchi insonlar, so'ngra o'zlarining mulklarini xavfga qo'ygan mulk egalari hisoblanishgan. Shuning uchun ham "tadbirkorlik" tushunchasi mulk haqidagi tasavvur bilan bog'lanib, tadbirkorning xo'jalikka qo'shadigan moddiy hissasi asosida qayd qilingan. XVII asr adabiyotlarida savdogarni tadbirkor, deb atashdi va uni moliya ishlari bilan shug'ullanuvchiga qarama-qarshi qo'ydi, XVIII asrda esa industrial xo'jalikning rivojlanishi tufayli tadbirkor deb ish beruvchini hisoblay boshlashdi. Keyinchalik K.Marksning nazariyasiga tayanib, tadbirkorni kapitalist bilan tenglashtira boshlashdi. Vaholanki, har qanday kapitalist tadbirkorlik bilan shug'ullanmasligi ham mumkinligi tarixdan ma'lum edi.

Hozirgi paytda ilmiy adabiyotlarda «tadbirkorlik» tushunchasi, mohiyati har xil izohlanadi. Hamma uchun qulay bo'lgan yoki an'anaviy yondashuvga ko'ra, tadbirkorlik – bu asosida faoliyat yuritish uchun insonni qayd qilingan ishlar va xizmatlarni bajarib, tizimli ravishda foyda ko'rish uchun xavf asosida amalga oshiradigan mustaqil faoliyatidir. Boshqacha qilib aytganda, tadbirkorlik – bu 1) insonlarni iqtisodiy faollik shakli, 2) bozor iqtisodiyoti institutlari, 3) innovatsion jarayoni, 4) maksimal foyda olishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarning ma'lum tizimidir.

Shunday qilib, tadbirkorlik g'oyalarni amalga oshiruvchi jarayon bo'lib, bunga mehnat, kapital va yer jalb qilinadi. Va bu yerdagi asosiy maqsad foyda olish hisoblanadi. Shuning uchun ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida iqtisodiy hayot sharoitidan kelib chiqadigan iqtisodiy, huquqiy, psixologik va tarixiy munosabatlar yig'indisi hisoblangan ijtimoiy munosabatlarni o'zida gavdalantiruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka bag'ishlangan konsepsiyalarning barchasini iqtisodiy, sotsiologik va ijtimoiy yondashuv doirasidagi konsepsiyalarga ajratib ko'rsatish mumkin. Ularni ajratish o'lchami bo'lib, bizning fikrimizcha, ishlab chiqarish jarayoni tahlili asos qilib olinadi, ya'ni uning moddiy tomoni yoki inson, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni yoki insonni takror ishlab chiqarish jarayonidan iboratdir.

Ammo xo'jalik hayotdagi o'zgarishlarni tushuntirib beruvchi birinchi ijtimoiy g'oyalar asosan iqtisodiy fanlar doirasida yuzaga keldi. Kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyatini ochib berish,

⁸ Блинов А.О. Малое предпринимательство. Организационные и правовые основы деятельности. - М., Экономика, 1998.С. 7-9.

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonidagi eng kerakli figura iqtisodiyot doirasida sodir bo'ldi.

Kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tatbiq etishda paydo bo'lgan yangi bosqich D.Gelbreytning "Yangi industrial jamiyat" asari bilan bog'liq. Bu iqtisodiy rivojlanish ma'lum pog'onaga ko'tarilishi tufayli, ishlab chiqarish yakka o'sishdan yalpi standartlashgan shaklga o'tishi bilan tavsiflanadi. Ushbu vaziyatda bozorni asta-sekin o'rganish, talabni istiqbollashtirish, yangi texnologiya va materiallarni yaratish talab qilinib, bu yerda yangi o'lchamlarda boshqarishni tashkil qilish va shu orqali tashkiliy xulq tadbirkorligini shakllantirilishi nazarda tutiladi. Bu doimiy ravishda erishilgan darajani yana oshirish, bo'lajak imkoniyatlar va xavflarni oldindan bilish, global muqobil harakat yo'llarini izlashdan iborat bo'lib, bu jarayon hozirgi sharoitda yanada yuqori sur'atlar bilan rivojlantirilmoqda. Demak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jamiyatni iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rnini aniqlash uchun jahon va mamlakatimizdagi iqtisodiy, ilmiy g'oyalardagi ilmiy xulosalarni mazmunni o'rgangan holda, bu kategoriyaning ilmiy muomalaga kiritish va uni ilmiy nuqtai nazardan izohlashda R. Kantilyon, K. Bodo, I.X. Tyunen va Naytearlarning xizmati katta.

Bu tushunchani fanda birinchi bo'lib R. Kantilyon ishlatgan va u kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni bozor talabi va taklifi o'rtasidagi nisbatlardan foydalangan holda, ma'lum bir darajada foyda keltirish xususiyatiga ega ekanligini, bu arzonga olib, qimmatga sotish uchun imkon berishni anglagan. Bu imkoniyatdan foydalana olganlarni, tavakkalchilik bilan ish tutuvchilarni "tadbirkor"lar deb bilgan. Demak, R. Kantilyonning fikricha, tadbirkor-bozor imkoniyatlarini ko'ra oladigan shaxs. U foyda olish uchun bu imkoniyatlardan tadbirkorlik bilan foydalanadi. K. Bodo (fizokrat) bu borada o'tmishdoshlaridan o'zib ketdi. Uning uqtirishicha, tadbirkor ma'lum intellektga, ya'ni, turli axborotlar va bilimlarga ega bo'lgan holda faoliyat yuritishda daromad keltirish borasida katta imkoniyatlarga egaligini ta'kidlaydi.

Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekistonlik olimlar ham, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni turli shakl va mazmunda ta'rif berishga harakat qilishmoqda. Xususan: S.G'ulomovning ta'rifiga ko'ra "Kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim xususiyatlari - uning harakatchanligi va jo'shqinligidir. Tadbirkor o'zining fikri bo'yicha muvaffaqiyatga olib keluvchi yangi harakat usullarini, mahsulot turini va texnologiyani, iste'molchilar doirasini, mahsuloti va ko'rsatadigan xizmatining sifatini yaxshilash yo'llarini tinimsiz qidiradi. Tadbirkor shunday insonki, u pul mablag'lari, materiallar va ishchi kuchini jamlashtirib (yangi mahsulot, yangi biznes, yangi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi yoki ishni tashkil etishning takomillashganroq usulini yaratadi)"¹⁷, deb qayd qilsa, YO.Abdullayev, F.Karimovlar: "Tadbirkor yakka shaxs sifatida ham, ishlab chiqarish omillarini

¹⁷ Фуломов С. Тadbirkorlik va kichik biznes.- Т.: "Ўқитувчи". 2002-32-б.

birlashtiruvchi kishilar guruhi sifatida ham namoyon bo'lishi mumkinki, bu kishilar o'zlari ixtiyorida bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini ish kuchi bilan, bu ish kuchini sotib olish va xo'jalik faoliyatida undan foydalanish yordamida birlashtiradilar"¹⁸. H.O.Rahmonovning fikricha: "...kichik biznes korxonalari iqtisodiyotda xo'jalik yuritishning mutlaqo yangi shakli emas. Kichik biznes korxonalari dastlab davlat korxonalari shaklida barcha Hamdo'stlik davlatlari iqtisodiyotida mavjud bo'lgan, biroq ushbu davrlarda ularning faoliyatiga yetarlicha e'tibor berilmagan edi."¹⁹

Shuningdek, yana boshqa qator nazariy fikrlarni, masalan V.Shepelevning: "Tadbirkor bozor iqtisodiyotida xo'jalik yuritishning asosiy subyekti hisoblanadi. Tadbirkor yakka shaxs sifatida ham ishlab chiqarish omillarini birlashtiruvchi kishilar guruhi sifatida ham namoyon bo'lishi mumkinki, bu kishilar o'zlari ixtiyorida (tasarrufida) bo'lgan ishlab chiqarish omillarini ishchi kuchi bilan, bu ishchi kuchini sotib olish va xo'jalik faoliyatida undan foydalanish vositasida birlashtiradilar"²⁰ deb bayon qilishiga ham e'tiborni qaratishimiz darkor. X.Abulqosimov esa "biznes" tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "biror faoliyat (ish) yuzasidan bo'lgan munosabat, aniqrog'i ishbilarmonlarning iqtisodiy munosabatidir. Keng ma'nosi - qonuniy yo'l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir"²¹.

Ushbu ta'riflarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelindiki, ularda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ichki mohiyatini ochib beruvchi bir qator yondashishlar mavjud bo'lib, bozor iqtisodiyoti talablariga ham mos keladi. Masalan, foyda olishga qaratilgan faoliyat ekanligi, bandlikni ta'minlash vositasi ekanligi, bozorni to'ldirishi va h.k.lar. Nazarimizda, mualliflarning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" tushunchasiga bergan ta'riflarining hozirgi sharoitga va bozor iqtisodiyoti talablariga mos kelishi, uning iqtisodiy mazmunini ochib berishga harakat qilganligidan dalolat berib turibdi. Barcha berilgan ta'riflarning ustuvor tomonlari mavjud, albatta. Shuning bilan birga ma'lum kamchiliklari ham mavjud. Masalan: YO.Abdullayev uning bandlikni ta'minlovchi asosiy omil sifatida tushunib ilmiy ta'rif bergan, X.Abulqosimov bergan ta'rifda esa tadbirkorlik aholining turmush farovonligini oshiruvchi omil ekanligi e'tibordan chetda qolgan.

O'zbekiston Respublikasida 2001 yil 15 mayda kabul kilingan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida «tadbirkorlik faoliyati» tushunchasiga: "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan konun xujjatlariga muvofik amalga oshiriladigan, tavakkal kilib va o'z mulkiy

¹⁸ Абдуллаев Ё, Каримов Ф. "Кичик бизнес ва тadbirkorlik asoslari".- Т.: «Мехнат». 2000. – 9-б.

¹⁹ Раҳмонов Х. О. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг ижтимоий- иқтисодий ривожланишини эконометрик моделлаштириш (бухоро вилояти мисолида) иқт.ф.д. дисс. автореф. –Т.: 2008;

²⁰ Шепелев В. Бозор иқтисодиёти шароитида тadbirkorlik. Солиқ тўловчининг журнали, 1996. №7, 30 б.

²¹ Абулқосимов Х. Хусусий кичик тadbirkorlik фаолиятини ривожлантиришининг иқтисодий муаммолари. Т.: ТДУ, 1998. – 6-б.

javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat" deb ta'rif beriladi. Shundan kelib chiqqan holda, tadbirkorlik faoliyati biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi va uning turli sohalarida amalga oshirilishi sodir bo'ladi.

"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunga asosan fuqorolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo'naltirilgan mustaqil, tashabbuskor faoliyati bo'lib, u fuqoroning o'z nomidan, o'zining tavakkalchiligi bilan hamda o'zining yoki yuridik shaxsning mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladi. Bu yerda tadbirkor to'la yoki qisman moddiy mablag'ga yoki moliyaviy resurslarga ega bo'lgan g'ayratli inson bo'lib, u ushbu resurslarni o'z ishini tashkil qilish uchun yo'naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida bayon qilingan nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda, shuni ta'kidlaymizki tadbirkorlik faoliyati juda ham ko'p qirrali bo'lib, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli jarayonlarini qamrab oladi va insonlarni faol mehnatga undaydi va shu orqali ularni va jamiyat ehtiyojini qondirishda faol ishtirok etadi. Shundan kelib chiqqan holda, tadbirkorlik faoliyatini sinflanishi masalalariga e'tibor berish o'ta muhim jarayon bo'lib, uni 1-jadvalda ko'ringandek ifodalash mumkin.

Jadvaldan ko'rinib turganidek, tadbirkorlik faoliyatini sinflanishi turli ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlanishi sodir bo'lib, bu yerda faoliyat turi bo'yicha, mulk munosabatlariga nisbatan, mulk egalarini soni, ishlab chiqarish hajmi va xodimlar soni bo'yicha va boshqa belgilarga qarab tavsiflashni amalga oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida tadqiqot ishimizni asosan faoliyat turi va ishlab chiqarish hajmi va xodimlar soni bo'yicha olib borish asosiy yo'nalish hisoblanadi va bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlar faoliyatida o'z aksini topadi.

1.1.1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining turkumlanishi

Sinflanish belgilari	Turmush faoliyatini tavsiflanishi			
Faoliyat turi bo'yicha	Ishlab chiqarish	Tijorat	Moliya	Iste'mol sohasi

Tashkiliy-huquqiy maqomi bo'yicha	Huquqiy shaxs bo'lmasdan	Xususiy korxona	Fermer xo'jaligi	Ma'suliyati cheklangan jamiyat
	Kichik korxona	Aralash hamkorlik	Yopiq yoki ochiq aksiyadorlik jamiyati	Qo'shma korxona
Mulk munosabatlariga nisbatan	Yakka (yollanma mehnatdan foydalanmasdan)	Xususiy	Davlat	
Mulk egalari soni bo'yicha	Yakka, xususiy	Oilaviy	Jamoa	Aralash, qo'shma
Ishlab chiqarish hajmi va xodimlar soni bo'yicha	Kichik korxonalar	O'rta korxonalar	Katta korxonalar	
Hududiy belgilari bo'yicha	Qishloq, tuman	Shahar, viloyat	Hududiy milliy	Xorijiy
Tarmoqqa tegishligi bo'yicha	Qurilish, to'qimachilik	Metallni qayta ishlash, tog'-kon qazib olish	Oziq-ovqat	Energetika, transport, aloqa

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida kichik biznesning o'rni va roli alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning yordamida bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish va hududiy monopolizmga barham berish, raqobat muhiti vujudga kelishi va kengayishi, ilmiy texnika natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish va, eksport salohiyati yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish jarayonlari sodir bo'ladi.

Kichik biznesning yana bir xususiyati nisbatan kam xarajatlar evaziga yangi ish o'rinlarini yaratish va shu orqali bandlik muammosini hal etishga hissa qo'shishi hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik biznes turli ijtimoiy guruhlar daromadlari o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni sarmoyadorlik darajasi yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltirishga, iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga o'z hissasini qo'shadi.

Kichik biznesning ijtimoiy vazifalari ham muhim ahamiyatga ega. U ijtimoiy jihatdan zaif aholi qatlamlari: ayollar nogironlar, nafaqaxo'rlarni va boshqalarni ish bilan ta'minlaydi hamda ularning mehnatidan keng foydalanadi. Yosh mutaxassislarning ishlab chiqarish tajribasi ortishiga sharoit yaratadi. Kichik biznes kishilarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik, ijodkorlik salohiyatlarini namoyish etish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Unda yirik korxonalardan farqli

o‘laroq, ishlab chiqarish natijalari va ishlovchilar manfaatlari o‘rtasida bog‘liqlikda yaqqol ko‘rinib turadi.

1.2. Kichik biznesning rivojlanishi va xususiyatlari

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznesni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinliklar berish bilan tavsiflanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mustaqillik berish ular faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini yanada oshiradi. O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyati asosan kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida yo‘lga qo‘yilib, bu jarayon respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov “Xizmat ko‘rsatish va kichik biznes sohasini aholi bandligini ta‘minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili sifatida yanada jadal rivojlantirish – ustuvor vazifa bo‘lib qoladi”²⁷ – deb bejizga ta‘kidlamadilar. Kichik biznes subyektlari xo‘jalik yuritishning shaxsiy manfaatdorlik, tashabbuskorlik va mulkiy javobgarlik tamoyillariga tayanib, iqtisodiyotda turli mulk shakllarining teng huquqlik va sog‘lom raqobat asosida rivojlanib borishiga asoslanadi. Kichik tadbirkorlik subyektlari o‘zlari yetishtirgan mahsulotiga egalik qilishiga, o‘zlariga tegishli mol-mulk, moliyaviy va moddiy resurslarni mustaqil tasarruf etishligi, mulkka bo‘lgan egalik hissiga ko‘ra bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to‘la mos tushadi.

Kichik biznesning mamlakatda bandlik muammosini hal etish, bozorning mo‘l-ko‘lligini ta‘minlash hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi imkoniyatlarini inobatga olib, bu sohaning rivojlanishiga alohida e‘tibor berilmoqda.

Bizning fikrimizcha, bu e‘tibor kichik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. YA’ni:

- bozordagi talabga tez moslasha borib, sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati;
- nisbatan qisqa muddatlarda aholi extiyoji uchun zarur bo‘lgan tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni qondira olishi;
- dastlabki sarmoya xajmining nisbatan kichikroq hajmda ekanligi;
- tez orada yangi ishchi o‘rinlari barpo etish hamda bandlik muammosini hal etishga ko‘maklashish imkoniyati;
- biznes egasining (tadbirkorning) vazifalarini amalga oshirishda bevosita ishtiroki.

Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o‘sish sur‘atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo‘lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o‘rin tutmoqda. Bunga ko‘p jihatdan huquqiy bazani mustahkamlash, iqtisodiyotning mazkur sektori uchun barqaror qulaylik, imtiyoz va kreditlar tizimini shakllantirish

²⁷ Каримов И.А. “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шaroitida уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари”. Тошкент-“Ўзбекистон, 2009.-54 б.

masalalariga jiddiy e'tibor berilayotgani tufayli erishilmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznesni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan karakterlanadi. Kichik tadbirkorlik subyektlariga mustaqillik berish ularning faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini amalga oshiradi.

Ilmiy kuzatishlarimiz ko'rsatishicha, keyingi yillarda mamlakatimizda kichik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi: kichik tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish hamda tadbirkorlik erkinligini kafolatlash tizimi shakllanmoqda; tadbirkorlarni Davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning yengillashtirilgan va xabardor qilish tartibi joriy etildi; birja savdolari orqali tadbirkorlarning moddiy-texnik resurslarni erkin sotib olishiga qulay shart-sharoit yaratildi; mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarining mahsulotlarini majburiy standartlashtirish va sertifikatlash soddalashtirildi; soliq yukini pasaytirish va soddalashtirish choralari ko'rildi; statistika va soliq hisobotining qisqartirilgan shakli kiritildi; kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati erkinlashtirildi; ish boshlovchi tadbirkorlar uchun dastlabki sarmoyani shakllantirish va boshqa shakllardagi yangi moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi joriy etildi va boshqalar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kuyidagi shakllari mavjud:

- xususiy tadbirkorlik jismoniy yoki yuridik shaxslar (korxona) tomonidan amalda o'zining shaxsiy (xususiy) mulki asosida tashkil kilinadi;
- jamoa tadbirkorligi - fukarolar guruxining jamlanma mulki asosida tashkil kilinadi;
- aralash tadbirkorlik - bitta (yoki bir necha) yuridik shaxs (korxona) va bir necha jismoniy shaxslar mulkini birlashtirish asosida tashkil kilinadi;
- ko'shma tadbirkorlik - ikki yoki undan ortik yuridik shaxslar (shu jumladan chet el korxonalari) mulkini birlashtirish yo'li bilan tashkil kilinadi;
- shartnomaviy tadbirkorlik - mulk egasi bo'lmagan korxona raxbari (yoki boshka mas'ul lavozimdagi xodim - menejer) tomonidan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Bunda mulk egasi yoki uning ishonchli vakili (idorasi) tomonidan ishlab chikarishni uyushtirish va boshkarish bo'yicha belgilangan xukuk majburiyatlar va javobgarlik ishga olingan tomonga, ya'ni korxona raxbari yoki boshka mas'ul lavozimdagi xodimga yuklanadi;
- korxona raxbari (yoki menejer) xuddi ishbilarmon fukaroga mos tartibda ro'yxatga olinadi va u kabi mas'uliyatga ega bo'ladi.

Bozor munosabatlari tizimida kichik biznes kuyidagi aloxida xususiyatlari: ishlab chikarish xajmi, ishlovchilarning soni va kaysi sanoat tarmogiga tegishliligi bilan tavsiflanadigan tadbirkorlik shakli sifatida namoyon bo'ladi. Kichik biznesga o'zining mustakil mulki va xo'jalik mustakilligiga ega bo'lgan va o'zining faoliyati soxasida yukori (dominant) xisoblanmagan firmalar kiradi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kichik biznes korxonalari xususiy mulk asosida tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil

11 oktabridagi “Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 439-sonli qarorida ta’kidlanishicha:

- mikrofirmalar deb, mulk shaklidan qat’iy nazar ishlab chiqarish sohasida yiliga o‘rta hisobda 20 nafargacha, xizmat ko‘rsatish sohalarida 10 nafargacha, savdo sohasida 5 nafargacha;

- kichik korxonalar deb mulk shaklidan qat’iy nazar ishlab chiqarish sohasida yiliga o‘rta hisobda faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra 50-100 kishigacha, savdo, xizmat ko‘rsatish sohalarida 20-25 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo‘lgan yuridik shaxslar tushuniladi²⁸.

Yuqorida bayon etilganlardan ko‘rinib turibdiki, kichik biznes korxonalari iqtisodiyotda xo‘jalik yuritishning mutlaqo yangi shakli emas. Kichik biznes korxonalari dastlab davlat korxonalari shaklida barcha Hamdo‘stlik davlatlari iqtisodiyotida mavjud bo‘lgan, biroq ushbu davrlarda ularning faoliyatiga yetarlicha e’tibor berilmagan edi.

Katta bo‘lmagan korxonalar tarkibiga odatda huquqiy jihatdan mustaqil xo‘jaliklar, ayrim holatlarda esa yirik ishlab chiqarish birlashmalari tarkibidagi korxonalar kiritilar edi. Korxonalarni turkumlashtirishda odatda ularda ishlovchilar soni asosiy mezon sifatida ajratib ko‘rsatilar edi²⁹. Ushbu mezonga ko‘ra 46 foizga yaqin korxonalar katta bo‘lmagan korxonalar tarkibiga kirar edi. Bundan tashqari korxonalarni turkumlashtirishda yalpi mahsulot hajmi ko‘rsatkichidan ham foydalanilar edi. Endilikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga asosan kichik korxonalarni aniqlash mezoni sifatida xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilayotgan ro‘yxatdagi xodimlar soni ko‘rsatkichini yagona va belgilovchi mezon sifatida ajratib berish nazarda tutilad. Shu bilan bir vaqtda bizning fikrimizcha fan va texnikaning yuksak taraqqiyoti sharoitida korxonaning haqiqiy ko‘lami haqida aniq va to‘g‘ri ma’lumot bera olmaslik hislatlari ham sodir bo‘ladi.

2008 yilda davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish sohasidagi yondashuvlar tubdan qayta ko‘rib chiqildi, korxonalar kapitalida davlat ishtirokini keskin kamaytirish bo‘yicha qarorlar qabul qilindi. Ayni vaqtda davlat mulkini baholash va keyinchalik xususiylashtirish sifatida sotishni tartibga soladigan meyoriy bazani erkinlashtirish yuzasidan ish olib borilishi natijasida davlat mulkini investitsiya kiritish va boshqa majburiyatlar asosida sotish uchun xorijiy va mamlakatimiz investorlari bilan tuzilgan shartnomalarning umumiy qiymati 3-4 barobar ko‘payib, 310 million dollar hamda 57 milliard so‘mni tashkil etdi. Jami tushumlarning 65 foizdan ortig‘i xususiylashtirilayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo‘naltirilmoqda. Natijada 2010 yilda xususiylashtirish sektorining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi 86 foizga yetdi.

²⁸ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 11 октябридаги “Кичик тadbirkorlik (biznes) subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 439-sonli qarori. “Халқ сўзи”, 2003 йил 12 октябрь.

²⁹ Абдуқосимов Х. Хусусий кичик тadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy muammolari. Т.: “ТДИУ”, 1998. 26-б.

Sanoat mahsulotlarining qariyb 82 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining salkam yuz foizi, chakana savdo aylanmasi esa to'liq holda ana shu sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda uning huquqlari va manfaatlarini himoyalash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida iqtisodiyotning bu tarmog'i tobora mustahkamlanib, uning respublikamiz iqtisodiyotidagi o'rni, ish bilan ta'minlash va mahsulot ishlab chiqarishdagi salmog'i yildan-yilga oshib bormoqda. 2014 yilda YAIMda kichik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hissasi 56,0 foizga yetdi. Kichik biznesning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishdagi hissasi sanoatda 17,1 foizni, qishloq xo'jaligida 66,4 foizni, umumiy chakana tovar aylanmasida 43,8 foizni, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatishda 41,3 foizni, avtomobil transporti yuk aylanmasida 38,7 foizni, yo'lovchi tashish xajmida 54,9 foizni tashkil etdi.

Tahlillarimiz ko'rsatishicha, kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyati asta sekin kengayib bormoqda. Uning umumiy eksport xajmidagi ulushi 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 11,6 foizni tashkil etmoqda, bu ko'rsatkich 2005 yilga nisbatan 5,1 foizga oshgan. Kichik korxonalarning tashqi savdo aylanmasi 900 mln. AQSH dollariga teng bo'ldi. Ularning asosiy eksport mahsulotlarini - qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, ishlov beruvchi, elektrotexnik ishlab chiqarish mahsulotlari, halq amaliy san'ati buyumlari tashkil etmoqda. Hukumat tomonidan tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini kengaytirish uchun shart-sharoitni yaratilishi natijasida texnologik asbob-uskunalarni olib kirishda qulayliklar va imtiyozlar yaratildi.

Olib borgan tahlillarimiz respublikamizda kichik biznes faoliyatini tashkil etish bu sohaning rivojlanishiga to'siq bo'lib turgan bir qator muammo va to'siqlarning ham mavjudligini ko'rsatmoqda.

Birinchidan, kichik korxonalar subyektining sust rivoji ko'zga tashlanadi. Jami kichik biznes korxonalari sonida kichik korxonalar ulushi 10,7 foizni, mikrofirmalar ulushi 78,3 foizni tashkil etadi.

Ikkinchidan, kichik biznesning tarmoq tarkibida nomunosiblik ko'zga tashlanadi. Kichik biznes korxonalari asosan qishloq xo'jaligida (43 foiz), savdo va umumiy ovqatlanishda (25,6 foiz) ko'pchilikni tashkil etadi. Sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida kichik biznesning rivojlanishi nisbatan sust kechmoqda. Bu o'z navbatida kichik biznesning iste'mol bozorlarini nisbatan qisqa muddatlarda mahsulotlar bilan to'ldirish imkoniyatini chegaralaydi.

Uchinchidan, respublika hududlari bo'yicha kichik biznesning rivojlanishi har xillikka ega. Kichik biznes korxonalari Toshkent shahri (10,6 foiz), Samarqand (10,3 foiz) va Andijon (9,5 foiz) viloyatlarida ko'proq tashkil topgan.

To'rtinchidan, kichik biznesning mahsulot eksport qilish jarayonidagi ishtiroki talab darajasida emas.

Bizning fikrimizcha, kichik biznesni rivojlantirish sohasida mavjud ushbu muammolarni samarali hal etish uchun respublika hukumatining bu sohani qo'llab

- quvvatlashga qaratilgan strategik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bunday konsepsiyaning asosida nomutanosibliklarni bartaraf etishga, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samaraliroq foydalanishga imkon beruvchi tuzilmaviy o'zgarishlar yotmog'i lozim.

Bizning fikrimizcha, kichik biznesni rivojlantirish konsepsiyasida asosiy e'tibor birinchi navbatda iqtisodiy salohiyatga ega faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlarini qo'llab - quvvatlash, tarmoq va hudud uchun zarur, ammo past rentabelli sohalarning rivoji uchun qulay imkoniyatlar yaratish, respublikaning ijtimoiy - iqtisodiy siyosati yo'nalishlari va maqsadlariga mos faoliyat yuritayotgan xo'jalik tuzilmalarini rag'batlantirish, hududiy ahamiyatga ega mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarga soliq imtiyozlari belgilash, lizing xizmati va investitsion xatarlarni sug'urtalash tizimini kengaytirish va moliyaviy imkoniyatlari chegaralangan kichik tadbirkorlik korxonalarining bank kreditlaridan foydalanishiga yo'l ochuvchi sharoitlarni ta'minlash vazifalariga qaratilmog'i kerak.

Banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun taqdim etilgan kreditlar 2010 yilda 1,4 barobar ko'paydi va 2 trillion 700 mlrd. so'mni tashkil etdi. Tadbirkorlar va xususiy shaxslarga berilgan mikrokreditlar miqdori esa 485 mlrd. so'mdan ortib, 1,5 barobarga ko'paydi³⁰.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish dasturini amalga oshirish yuzasidan bajarilayotgan chora-tadbirlar bugungi kunda sezilarli natijalar bermoqda. Faqat 2014 yilning o'zida qoramol boqish bilan shug'ullanadigan 365 mingdan ziyod fuqaroga mehnat daftarchasi ochildi. Bu esa ularning ijtimoiy va huquqiy himoyasini ta'minlash imkonini berdi. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boqish bilan band bo'lganlar sifatida ro'yxatga olingan fuqarolarning umumiy soni esa bir million nafardan oshib ketdi.

Yangi ish o'rinlarini tashkil etish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar 2014 yilning oxiriga kelib ish bilan band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholi o'rtasida ishsizlar sonini mamlakatimiz bo'yicha 5-6 foizgacha kamaytirish imkonini berdi.

O'zbekistonda boshlanayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida xo'jalik yuritish mexanizmining samaradorligini oshirishning qo'shimcha rezervlarini qidirib topish hamda mamlakatning jahon hamjamiyatiga kirib borishiga imkon yaratuvchi sharoitlarni yaratish vazifalari muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. O'zbekiston uchun ma'qul bo'lgan iqtisodiyotni sog'lomlashtirish usullari esa birinchi navbatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish zaruriyatiga borib taqaladi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim masalalaridan biri, bu - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini keskin

³⁰ Каримов И. А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

oshirish, bandlik masalalarini hal qilish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda milliy farovonlikni ta'minlashdan iboratdir. Chunki, yirik ishlab chiqarish obyektlariga qaraganda kam sarmoya talab qiladigan hamda turli o'zgarishlarga moyil bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot turlarini yangilash, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va shu bilan birga, bozor konyunkturasi beqaror hamda vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadigan iqtisodiy inqirozlari sharoitiga tez moslashuvchanlik imkoniyatini tug'diradi.

Shuni ta'kidlash joizki, makroiqtisodiy va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida oxirgi yillarda kichik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida ijobiy siljishlar ro'y berdi. Uning kelgusida ham jadal sur'atlar bilan rivojlanishi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ustuvor vazifalaridan bo'lib qoladi. Kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tez sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlamasdan barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy soha muammolarini hal etish mumkin emas. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning asosini xususiy sektor tashkil etishi lozim.

O'tgan davr ichida, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida iqtisodiyotning mazkur sohasiga doir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Qabul qilingan farmonlar va qarorlar kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tomon yuz tutishida katta o'rin egalladi. Bu hujjatlar ham, o'z navbatida, yil sayin hayotga mos ravishda o'zgartirilib, kengaytirilib borilmoqda. Bularning barchasi kichik korxona va xususiy tadbirkorlarning ko'payishi, erkin va keng faoliyat yuritishini ta'minlash hamda ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgandir.

Davlat tomonidan kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bunday qo'llab-quvvatlanishi uning real sektordagi o'rnining sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi. O'tgan o'n yil vaqt ichida bunday o'zgarish va ko'rsatkichlarga erishish, qilingan mehnat va intilishlarning besamar ketmaganligini ko'rsatadi.

Kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga imkon yaratib beruvchi asosiy sharoitlardan biri-bu raqobat muhitini yaratish va xo'jalik yuritish subyektlariga iqtisodiy erkinlik berishdir. Muammoning mohiyatini bunday tushunishning o'zi hozirgi zamon jahon iqtisodiyoti rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri-kichik biznesning tobora o'sib borayotgan ahamiyatini yanada yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Iqtisodiyotning aynan shu tarmog'i qobiliyatli va ishbilarmon odamlarni tanlab olishning samarali tizimini ifoda etadi, zaruriy raqobat muhitini yuzaga keltiradi, yirik xo'jalik tuzilmalari tomonidan yechilishi qiyin bo'lgan bir qator muammolarni tez orada yechishga imkon yaratadi.

Kichik biznes sohasida band firmalar ko'pincha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etishga urinishlari bilan xarakterlanadi. Ular faoliyati strategiyasi asosan quyidagilardan tashkil topadi:

birinchidan, yuqori texnologiyali rivojlanayotgan firmalar raqobat kurashi bo'lishidan manfaatdor emas. Shu sababli ular bozordagi yuqori foyda keltiradigan bo'shliqni egallashga harakat qilib, tor darajada ixtisoslashgan mahsulot ishlab chiqarishga intiladilar.

ikkinchidan, firmalar yirik korxonalardan butlovchi qismlarni sotib olish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirishga intiladilar.

uchinchidan, ko'pchilik firmalar ishlab chiqarish jarayonini yengillashtirish maqsadida yo bitta turdagi mahsulot ishlab chiqarishga yoki bir turdagi texnologiyaga ixtisoslashadilar. Ular ana shu mahsulot yoki texnologiyani iste'molchilarning talabiga moslashga harakat qilishadi. Yirik korxonalarga esa keng istemolchilarning talabini qondirishga mos bo'lgan standart mahsulotlarni ishlab chiqarish xos. Kichik korxonalarning yirik korxonalardan farqi va afzalliklari ham shundadir.

to'rtinchidan, deyarli barcha kichik korxonalar mustaqillikni saqlab qolishga intilib, tashqaridan mablag' jalb etmaslikka harakat qiladilar. Mutaxassislarning fikricha, kichik firmalar mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi rivojlanib borishi bilan mustaqillikka va o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirishga harakat qiladilar.

Yuqorida bayon etilganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar korxonalari bilan raqobatbardoshlik darajasi ko'tarilishiga imkon beruvchi eng muhim omillardan biri kichik korxonalarning butun bir tarmog'ini vujudga keltirishga imkon beruvchi qulay shart-sharoitlarni yaratishdirki, bunday korxonalar yigindisi raqobatli bozor muhitini yaratishga imkon bersin.

Demak, respublikamiz mintaqalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalarga alohida e'tibor qaratish, bu jarayon yangi innovatsiyalar, tashabbuskorlikni talab etishini, shular asosidagina iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash mumkinligini unutmazlik kerak. Shunday ekan, mintaqalardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar rahbarlari fan va texnika sohasidagi eng so'nggi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining makroiqtisodiy va mintaqaviy tendensiyalarini iqtisodiy tahlil etish maqsadida kichik biznesni mintaqalarda rivojlantirishning tashkiliy-uslubiy modelini ishlab chiqishga harakat qilamiz. Bunda makroiqtisodiy tendensiyalarning ijtimoiy, texnologik, iqtisodiy va siyosiy jihatlari hamda mintaqalar rivojlanishining kuchli va zaif imkoniyatlari baholanadi; kelgusi rivojlanishning xavf-xatarlari turkumlashtiriladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, kichik biznes rivojlanishining strategik vazifalari sifatida: eng muhim ustuvor yo'nalishlar rivojini rag'batlantirish; salohiyatlilarga qulayliklar yaratish; tarmoq va hudud rivoji uchun zarur, ammo rentabelligi past bo'lgan subyektlarni qo'llab - quvvatlash; yuqori foyda keltiradigan bo'shliqni egallashga ixtisoslashuv; yirik korxonalar bilan kooperatsiyalashuv; iste'molchilar talabiga

moslashuv; mustaqil tadbirkorlik muhitini mustahkamlash kabilarni ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda mintaqalarda ishlab chiqarishni texnik jihatdan muntazam modernizatsiya qilib borish uchun samarali rag'batlantirish tizimini yaratishimiz zarur. Bu borada modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlarini jadallashtirish uchun korxonalarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan yo'naltirilayotgan sarmoyalarini uch yilga daromad (foyda) solig'idan, o'rnatilgan va ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan yangi uskunalarni esa mulk solig'idan ozod qilish bu masalaga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash deganda, bir tomondan, davlat tuzilmalari tomonidan kichik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning raqobatbardoshligini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish tushunilsa, boshqa tomondan, unga moddiy va moliyaviy resurslar kiritish ko'zda tutiladi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash oqilona dotatsiyalar, soliq solish, kreditlash, sug'urtalash va investitsiyalashdagi imtiyozli tartiblar va xokazolar shaklida namoyon bo'lishi kerak. Bu holda, u boqimandalikni rag'batlantirish bo'lmaydi va kichik korxonalar tomonidan doimiy holat yoki raqobatbardoshlik va rentabellikni oshirishning asosiy manbai sifatida qaralmaydi. Zamonaviy sharoitlarda davlat ko'maging asosiy tamoyili biznesni ma'muriy-direktiv boshqarishni asta-sekin qisqartirish va bozor xo'jaligini barqaror yuritish uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlar yaratish bo'lmog'i lozim. Davlat ko'magi tarmoqli, geografik, milliy, tarixiy xususiyatlar va an'analar, shuningdek, xorijiy tajribani hisobga olgan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning raqobatbardoshligini rivojlantirish uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlar, omillar yaratish sifatida namoyon bo'lishi kerak. Kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng muhim vazifalari kichik korxonalarga teng huquqlarni ta'minlash, kichik va yirikroq korxonalar o'rtasidagi xo'jalik imkoniyatlari bo'yicha farqni imkon qadar kamaytirish, O'zbekiston xo'jaligining bozor tizimini shakllantirishning bazaviy jarayonlarida kichik va yirik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eng maqbul nisbatini ta'minlashdan iborat. Bu, birinchi galda raqobatli bozor musobaqasida teng huquqlilikni, faoliyat turini erkin tanlash va mustaqillik hamda ishbilarmonlikni namoyon etishning shakl va usullarini erkin tanlash sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishda teng imkoniyatlar yaratish, ularning huquqlari va javobgarligini, imkoniyatlari va tavakkalchiligini aniq belgilashdir. Bunda ijtimoiy, iqtisodiy, yuridik, siyosiy va boshqa qulay sharoitlar mavjud bo'lsagina biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin.

Kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi xo'jalik yuritish tizimini yaratishning bozor mexanizmlariga asoslanib respublikaning joriy va istiqbolli rivojlanish bosqichlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishish vositasi hamdir. Davlatning iqtisodiyotga, shu jumladan kichik biznes taraqqiyotiga bevosita ta'sir

ko'rsatishi davlat tomonidan shu sohaga taalluqli qonunlar yaratilishi bilan amalga oshiriladi. "O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik to'g'risida», «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish», «Korxonalar to'g'risi»da, «Kichik va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish» to'g'risidagi qonunlar shu yo'lda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar natijasidir. Jumladan, «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunda bu faoliyat bilan, ayrim kategoriyadagi shaxslardan tashqari barcha, jismoniy va yuridik shaxslar shug'ullanishi mumkin, deyilgan. Davlat idoralari va boshqaruv muassasalarida ishlovchilar, shuningdek, prokuratura va sud mahkamalari xodimlarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi man etilgan. 1995 yil 21 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida qabul kilingan «Kichik va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi qonunda tadbirkor va ishbilarmonlar uchun yanada ko'proq imtiyozlar va kafolatlar berildi. Bu o'z navbatida kichik biznes bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar va ishbilarmonlarning ishchanligini yanada faollashtirishga, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini oshirishga, inflyatsiya jarayonlarini sekinlashtirishga, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, iqtisodiyotning ushbu sektorini rivojlantirishning zarur meyoriy-qonunchilik hujjatlari qabul qilinib, ularni samarali amalga oshirish mexanizmi shakllana boshladi va uni davlat tomonidan keng miqyosda qo'llab-quvvatlash tizimi vujudga keltirildi. 2000 yildan boshlab mamlakatimizda kichik biznes rivojlanishining o'ziga xos yangi davri boshlandi. Bunga asos bo'lib, O'zbekiston Respublikasining «Erkin tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni xizmat kilgan bo'lsa, 2000 yilning 23 fevralida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik va o'rta biznes korxonalari hisobotini qisqartirish va tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga halaqit berib kelgan asosiy «byurokratik» to'siqning bartaraf etilishi va bu bilan ular faoliyatining rivojlanish imkoniyatlarining kengayishiga olib keldi. Shuningdek, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida kichik biznes subyektlarini rivojlantirishga aniq maqsadli yo'naltirilgan tarzda yondashishga alohida e'tibor berila boshladi. Bunda mamlakatimiz ichki bozorini sifatli tovar va xizmatlar bilan ta'minlash borasida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarda kichik va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar va imtiyozlar tizimi amal kila boshladi. Kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning yangi mexanizmlaridan foydalanish yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish kichik va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va eksport qilish, mavjud zahiralaridan tejamkorlik bilan foydalanish asosida sifatli va arzon xalq

iste'moli tovarlari ishlab chiqarib, xalq turmush farovonligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bugungi kunda yirik makroiqtisodiy ahamiyatga ega va uning holati talab va taklif nisbatida aholi moddiy iste'moli darajasida, daromad va harajatlarida, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida o'z aksini topadi. Shuning uchun ham bu sohada uning salohiyatidan foydalanish jarayonlarini o'rganish dolzarb muammolardan biri bo'lib bormoqda. Kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yaqin va uzoq kelajakdagi rivojlanishi uning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mahsulotni ishlab chiqarishdan iste'molchigacha yetkazishda zarur bo'ladigan barcha jarayonlarda uning salohiyati va imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim bo'ladi.

II-BOB. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda kichik biznesning o'rnini qiyosiy tahlili.

2.1. Kichik biznesning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ishbilarmonlik ta'minlashda tadbirkorlik faoliyati muhim ahamiyatga egadir. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ta'kidlaganidek, - "Tadbirkorlik - iqtisodiy tanglikdan olib chiqishning, iqtisodiy taraqqiyotga olib borishning asosiy iqtisodiy vositasi, taraqqiyot lokomotivi"² hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ham kichik biznesni shakllantirish hamda rivojlantirishga ustuvorlik berilishi amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda kichik biznesni faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning zarur meyoriy-qonunchilik, tashkiliy va iqtisodiy asoslari va ularni samarali amalga oshirish mexanizmi bosqichma-bosqich yaratilib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni bozor tamoyillariga mos tizimi vujudga keltirildi.

Mustaqillik yillarida kichik biznes o'zining jamiyatning barcha jabhalardagi mavjud muammolarni bartaraf etishning, boshqa hech bir soha va yo'nalish o'rnini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan alohida o'ringa ega ekanligini tasdiqladi. Xususan, ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda va uni barqarorligini ta'minlashda sezilarli darajada hissa qo'shmoqda.

Avvalambor, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida muhim omillardan hisoblangan ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun yaratilgan makroiqtisodiy muhit bilan bir qatorda uni amalga oshirishdagi asosiy xo'jalik yuritish subyektlaridan biri – kichik biznesni shakllanishi va rivojlanishi tendensiyasini aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim rol o'ynaydi. Chunki ushbu bozor iqtisodiyoti subyektlari qanchalik rivojlansa, ularning soni ko'payib, ishlab chiqarayotgan mahsulotlari va ko'rsatayotgan xizmatlari miqdori hamda

² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Тошкент.: Ўзбекистон, 1992. 75-б.

sifati oshib borsa, mamlakatimizning iqtisodiy qudrati tobora oshib, xalq farovonligi yuksaladi.

Kichik biznes amalga oshirilgan islohotlar doirasida bosqichma-bosqich tarzda shakllandi. Har bir bosqichda mavjud holatlardan kelib chiqqan holda alohida maqsad va vazifalar belgilanib, iqtisodiy faollikni ta'minlashga qaratilgan yangi chora-tadbirlar va mexanizmlar yaratildi. Bunda asosiy e'tibor kichik biznesni Yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushini oshirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy va ijtimoiy muammolarni hal etish, eksport faoliyatini rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va boshqa qator vazifalarni yechimiga qaratildi.

Mavjud jarayonlarni ishbilarmonlik muhitini yaxshilashni ta'minlashdagi o'rni va erishilgan natijalar nuqtai nazaridan tizimlashtirgan holda kichik biznesni shakllanishi va rivojlanishini shartli ravishda to'rtta bosqichga bo'lgan holda tahlilini keltirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (2.1.1-jadval). Jadval ma'lumotlariga ko'ra kichik biznes subyektlari shakllanish va rivojlanish jarayonlarida bevosita davlatning har tomonlama qo'llab-quvvatlashi natijasida dastlabki tor tarmoqlar doirasida vujudga kelgan bo'lsa, keyinchalik ularning faoliyat turlarining kengayishi sodir bo'ldi.

2.1.1-jadval

Kichik biznesni ishbilarmonlik muhitini yaxshilashdagi o'zni nuqtai nazaridan rivojlanish bosqichlari

Bosqichlar	Erishilgan natijalar	Mavjud muammo va nomutanosibliklar
Birinchi bosqich (1991-1995 yillar)	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi, istemol buyumlari ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarni rivojlanishi.Ularning YAIM dagi ulushi 1,5%dan (1991yil) 16,9%ga (1996yil) va mos ravishda sonini 23 mingtadan 103,6 mingtaga ortdi.	Mustahkam huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslarining keng qamrovli tizimini yaratilmaganligi natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ularning notekis rivojlanishi, faoliyatidagi nomutanosibliklarni mavjudligi hamda iqtisodiy faollikni ta'minlashdagi mavqeining past darajasini saqlanib qolganligi
Ikkinchi bosqich (1996-2003 yillar)	Iqtisodiyotning tarkibiy o'zgartirishlarini jadallashtirish asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni mutanosibligi va yuqori o'sish suratlarini taminlashga erishish orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi. Bunda "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" qonunning qabul qilinishi natijasida tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish mexanizmi soddalashtirildi, aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoit yaratildi va imtiyozli kreditlar olish huquqlari mustahkamlandi. Shuningdek,eksport qilishdagi maxsus imtiyozlar,yagona soliq to'lovining joriy etilishi, ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini tubdan takomillashtirilishi va KBXTni rag'batlantirish va qo'llab quvvatlashni yangi mexanizmlari ishlab chiqildi.Ushbu bosqichda dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi ulushining 78%dan oshishi hisobidan KBXT ning	Tadbirkorlik subyektlariga huquqiy,tashkiliy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash tadbirlari muntazam ravishda amalga oshirilganligiga qaramay xarajatlarning oshishi,investitsiya muhitining yomonlashuvi,ishlab chiqargan mahsulotlarning raqobatbardoshligini pasayishi va eksport faoliyatiga to'sqinlik qilishga olib keluvchi mamuriy to'siqlarning mavjudligi va saqlanib qolishi.

Bosqichlar	Erishilgan natijalar	Mavjud muammo va nomutanosibliklar
	YAIMdagi ulushi 2000yildagi 31%dan 2003yilda 35%ga yetdi.Kichik sanoat korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash natijasida ularning ulushi sanoat mahsuloti ishlab chiqarishida 2003 yilda 16,6% ga ,qurilishda 43,4%,chakana savdoda 42,2% va pulli xizmatlarda 45,4% ga yetdi hamda qulay ishchanlik muhitining yaratilishi natijasida iqtisodiyotdagi jami bandlarning 56,7%i ushbu sektor hissasiga to'g'ri keldi.	
Uchinchi bosqich (2004-2008 yillar)	Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi,sanoat tarmoqlarini texnikaviy va texnologik qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish dasturining qabul qilinishi,tarkibiy va mamuriy islohotlarning davom ettirilishi natijasida tadbirkorlarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish,tekshiruv tizimini isloh qilish, soliq hisobotini takomillashtirish,naqd pullar bilan muomala qilishga ruxsat berish,litsenziya olishni optimallashtirish va kichik tadbirkorlik subyektlariga kiruvchi korxona va tashkilotlar yangi tasniflarini kiritish amalga oshirildi.Natijada 2008 yilda YAIM dagi ulushi 48,2ga yetib,ulardagi bandlar soni 8024,1 ming kishiga yetib, iqtisodiyotdagi bandlarning 72,7%ini tashkil etdi.	YAIMda kichik sanoat korxonalari ulushining pastligi,ishlab chiqargan mahsulotlarining raqobatbardoshligi darajasining pastligi natijasida ularni eksportdagi ulushining past bo'lishi.
To'rtinchi bosqich (2009-hozirgi vaqtgacha)	Ushbu sektorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash "Inqirozga qarshi chora-tadbirlar" Davlat dasturi doirasida moliyaviy,investitsiya,imtiyozli kreditlar va tadbirkorlikni rivojlanishini maqsadli subsidiyalar berish orqali qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida amalga oshirildi va ushbu jarayon yanada davom etmoqda.Ushbu davrda KBXTni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari bo'lib-mahsulotlar raqobatbardoshligini oshishi,ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mahsulot eksportini oshirish, yirik korxonalar bilan faol ravishda kooperatsiya jarayonlariga kirishish hisoblanadi.Shuningdek,	Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotini erkinlashtirish va ishchanlik muhitini yaxshilashga oid qabul qilingan va amalga oshirilayotgan tadbirlar bilan to'liq tanish emasliklari va qabul qilingan myoriy- huquqiy hujjatlarni bajarmaslik holatlarining uchrashi

Bosqichlar	Erishilgan natijalar	Mavjud muammo va nomutanosibliklar
	2011yilda “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturining amalga oshirilishi natijasida ularning YAIM dagi ulushi 54,0%ga yetdi, qulay ishchanlik muhiti yaratildi va iqtisodiy faollikni taminlashda yetakchi kuchga aylandi .2014 yilda kichik biznesning YAIM dagi ulushi 56 % ni tashkil etdi.	kabilar.

Ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda, avvalambor, kichik biznes subyektlari o'zlarining ixtisoslashuvi nuqtai nazaridan bosqichma-bosqich shakllantirilgan huquqiy asoslariga tayangan holda tashkiliy va iqtisodiy jihatdan bozor tamoyillariga mos ichki va tashqi faoliyatini shakllantirib, amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga asosiy e'tiborlarini qaratganliklarini ta'kidlash joiz.

2.1.2-jadval

Ko'rsatkichlar	O'lov bir- ligi	2009y .	2010y .	2011y .	2012y .	2013y.	2014y .	2014 yilda 2009 yilga nisba- tan o'zgari- shi
YAIM dagi ulushi	%	50,1	52,5	54,0	54,6	55,8	56,0	4,9 f.p.
Shu jumladan:								
Kichik korxona va mikrofirmalar	%	31,2	32,7	33,7	36,7	37,4	37,5	6,3 f.p.
Faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar soni	Ming birlik	422,9	472,8	487,4	332,6	240,0	195,0	-227,9
Kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar soni	Ming kishi	8402,3	8639,3	8913,5	9200,4	7762,8	8024,1	+1659,4
Kichik biznes sohasida bandlarning iqtisodiyotda band aholining umumiy sonidagi ulushi	%	74,2	74,3	74,8	75,0	75,3	76,5	2,3 F.p.
Har ming kishiga to'g'ri keladigan faoliyat yuritayotgan subyektlar soni	birlik	15,1	15,0	16,5	9,1	12,5	15,3	+3,2

Tadbirkorlik subyektlari uchun davlat tomonidan ularga har tomonlama keng imkoniyatlar yaratib berilayotganligi natijasida **2009-2014 yillarda** yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi **50,1** foizdan **56,0** foizga o'sdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalarning ham o'z mavqeini mustahkamlab borayotganligi, ya'ni, ularning ulushini 6,3 f.p. ga oshib, 2014 yilda 37,5 foizga yetganligi ularni ichki tarkibida sodir bo'lgan muhim miqdor va sifat o'zgarishlaridan hisoblanadi. Albatta iqtisodiy faollikka erishishning ushbu ko'rsatkichlari aksariyat jihatdan faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlar va ularda band bo'lganlar soniga ham bog'liqdir. 2009 yilga nisbatan ularning soni qariyb **1,5 martaga oshib**, 2014 yilda 487,4 mingta, band bo'lganlar soni esa, 1659,4 ming kishiga oshib, 8913,5 ming kishini tashkil etib, iqtisodiyotda band aholining umumiy sonidagi ulushi 76,5 foiz ni tashkil etmoqda. Bunday o'sish ushbu sektorning iqtisodiy rivojlanishdagi mavqeining yanada oshib borayotganligidan dalolat beradi. Har ming kishiga to'g'ri keladigan faoliyat yuritayotgan subyektlar soni 2009 yilda 15,1 tani tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 15,3 taga yetgan (2.1.2-jadval).

Demak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish ko'rsatkichlari tendensiyasini tahlil etilayotgan davrda barcha ko'rsatkichlar bo'yicha ijobiy natijalarga ega ekanligini ta'kidlagan holda, ularni tarmoqlar darajasidagi tahlillarini ham keltirish maqsadga muvofiqdir.

Chunki bunday yondashuv, iqtisodiy faollikni ta'minlashda KBXTning o'rnini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **11,0** foizga oshib, **10,0** foizdan **21,0** foizga yetdi, qishloq xo'jaligida 94,2 foizdan 97,8 foizga o'sib, asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari hisoblanadi. Shuningdek, qurilishdagi ulushi keskin o'sib, 2014 yilda 69,0 foizga yetgan. Chakana savdo aylanmasida yuqori o'sishga erishilmagan bo'lsada, KBXT ning hissasi 47,0 foizni tashkil etmoqda. Lekin bunday ijobiy natijalar bilan bir qatorda pullik xizmatlar ko'rsatishdagi ulushini 4,5 foizga qisqarishi ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolar bilan izohlanadi. Buning asosiy sababi savdo sohasidagi soliqlarning yuqoriligi, bank hisob-raqamlaridan naqd pul mablag'lari olishdagi muammolar va ularning cheklanganligi kabi jarayonlarni tartibga solishdagi meyoriy-huquqiy asoslarning takomillashmaganligi hisoblanadi. Albatta, kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotning moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridagi mavqeining yuqori ekanligi va uni mustahkamlanib borayotganligi bevosita, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga va umumiy iqtisodiy faollikka erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi (2.1.3-jadval).

2.1.3-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi (%)³

³ Manba: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган

Tarmoqlar	2009y.	2010y.	2011y.	2012y.	2013y.	2014y.	2014 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi
Sanoat	16,9	19,6	21,0	16,9	19,6	21,0	11,0f.p.
Qishloq xo'jaligi	97,8	97,9	97,8	97,8	97,9	97,8	3,6f.p.
Qurilish	41,6	52,3	69,0	41,6	52,3	69,0	18,0 f.p.
Chakana tovar aylanmasi	46,5	50,5	47,0	46,5	50,5	47,0	1,7 f.p.
Pullik xizmatlar	48,7	47,7	46,4	48,7	47,7	46,4	- 4,5f.p.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini umumiy tahlilari qatorida, muhim jihatlaridan biri mintaqalar darajasida ularning rivojlanish tendensiyasi va tutgan o'rnini aniqlash hisoblanadi. Buning o'ziga xos jihatlari bilan bir qatorda sabablari ham mavjud.

2.1.4-jadval

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni YAIM va YAHMdagi
ulushi (%)⁴**

⁴ Manba: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг маълумотлари асосида тузилган

Mintaqalar	2010y.	2011y.	2012y.	2013y.	2014y.
O'zbekiston Respublikasi	52,5	54,0	56,4	55,8	56,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	63,6	66,0	60,7	63,6	66,0
Viloyatlar:					
Andijon	54,7	56,3	51,2	54,7	56,3
Buxarskaya	64,1	65,7	61,4	64,1	65,7
Jizzax	77,3	79,8	74,4	77,3	79,8
Qashqadaryo	55,0	56,2	52,2	51,4	51,5
Navoiy	34,4	35,9	31,2	34,4	35,9
Namangan	76,0	78,7	72,4	76,0	78,7
Samarqand	73,6	76,2	71,2	73,6	76,2
Surxandaryo	71,7	73,8	70,0	71,7	73,8
Sirdaryo	77,4	79,8	75,5	77,4	79,8
Toshkent	54,7	57,2	51,8	54,7	57,2
Farg'ona	59,5	61,2	56,1	59,5	61,2
Xorazm	71,8	74,1	68,2	71,8	74,1
Toshkent shahri	49,9	53,1	46,7	49,9	53,1

YA'ni, mintaqalarning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rnining turlicha ekanligi iqtisodiy faollikka erishishning darajasiga o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan ham, kichik biznesning mintaqalarda Yalpi hududiy mahsulotdagi (YAHM) ulushi ko'rsatkichi orqali ularning rivojlanish darajasini ko'rishimiz mumkin.(2.1.4-jadval). Mintaqalar darajasida ham kichik biznes subyektlarining mavqeining mustahkamlanayotganligi tendensiyasidagi ijobiy o'zgarishlarni ta'kidlagan holda, ularni respublika miqyosida mintaqalar kesimida notekis rivojlanayotganligini ta'kidlash joiz. Jumladan, kichik biznes subyektlarini YAHMdagi ulushi darajasiga ko'ra ikkita guruhga bo'lish mumkin. YA'ni , birinchi guruh-respublika darajasidan past bo'lgan viloyatlar (54,0%) va ikkinchi guruh-yuqori bo'lganlar.

Birinchi guruhga sanoati rivojlangan Toshkent shahri va Navoiy viloyatining to'g'ri kelishi mavjud resurslar salohiyatiga mos keladi. Lekin qolgan viloyatlarda ham ushbu yo'nalishdagi tafovutlarning mavjudligi, mintaqalar darajasida kichik biznesni rivojlantirishga mahalliy salohiyatni to'liq hisobga olgan holda, ulardan samarali foydalanishni o'zida mujassamlashtirgan chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqishni taqoza etadi. Xususan, Andijon, Farg'ona,Qashqadaryo, Toshkent va Buxora viloyatlarida kichik korxonalarni yirik korxonalar bilan o'zaro kooperatsiyasini rivojlantirish asosida kichik biznesni rivojlantirishga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiqdir.

2.1.5-jadval

**Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni
iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi (%)**

Tarmoqlar	2009y.	2010y.	2011y.	2012y.	2013y.	2014y.	2014 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi
Sanoat	13,9	16,9	19,6	16,9	16,6	16,9	3,0f.p.
Qishloq xo'jaligi	94,2	97,5	97,7	97,8	97,9	97,8	3,6f.p.
Qurilish	51,0	53,7	58,5	52,3	52,369,0	74,9 69,0	23,9 f.p.
Chakana tovar aylanmasi	45,3	47,2	47,2	46,5	47,5	35,5	-9,8 f.p.
Pullik xizmatlar	50,9	50,5	49,1	48,7	54,7	55,6	4,7f.p.
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	10,3	11,8	12,6	14,5	12,3	14,7	4,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, viloyat iqtisodiyot tarmoqlaridagi kichik biznesning ulushi o'sish tendensiyasiga ega, lekin chakana tovar aylanmasidagi ulushi -9,8 foizga kamaygan.

2.1.5-jadval

**Yakkabog' tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni
iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi (%)**

Tarmoqlar	2009y.	2010y.	2011y.	2012y.	2013y.	2014y.	2014 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi
Sanoat	16,9	19,9	21,6	20,9	21,2	21,9	3,0f.p.
Qishloq	95,2	98,5	98,7	98,8	98,9	98,8	3,6f.p.

xo'jaligi							
Qurilish	51,0	53,7	12,5	7,3	8,0	8,7	23,9 f.p.
Chakana tovar aylanmasi	39,3	41,2	41,2	40,5	41,5	38,2	-9,8 f.p.
Pullik xizmatlar	40,9	40,5	59,1	58,7	64,7	65,6	4,7f.p.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Yakkabog' tumanida kichik biznesning iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi qishloq xo'jaligida, pullik xizmatlarda, savdo va umumiy ovqatlanishda yuqori foiz ko'rsatkichlarga ega.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mehnatga layoqatli aholi uchun yangi ish o'rinlari ochish, barqaror daromad manbalarini yaratishning eng muhim omiliga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda, ya'ni 2014 yil yakuni bo'yicha **1113,5** ming kishi yoki mamlakatimizdagi ish bilan band aholining **76,5** foizi aynan shu sohada mehnat qilayotganligi ham shundan dalolat beradi.

Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy faollikni ta'minlashda KBXT subyektlarining mavqeining mustahkamlanib borayotganligini ijobiy natija sifatida ta'kidlagan holda, amaliy ishlarning mantiqiy davomi sifatida **2011 yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili"** deb e'lon qilinganligi munosabati bilan 2011 yil 7 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturini ta'kidlash joiz.

Dastur doirasida qo'yilgan masalalar va ularni hal etilishi bevosita iqtisodiy faollikni oshirishga ustuvorlik berilishi bilan bog'liqligi Mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes-muhitini yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Avvalambor ushbu jarayon huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy yo'nalishlarda mavjud shakllangan holatdagi kamchiliklar, salohiyat va imkoniyatlardan samarali foydalanishga oid tadbirlarni talab etadi.

Buning yaqqol misoli tarzida, huquqiy jihatdan ***"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilinishi,*** shuningdek, ***"Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi,*** ***"Tadbirkorlik faoliyatida ruxsat berish tartibi to'g'risida",*** ***"Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqining kafolatlari to'g'risida"gi*** va shu kabi ***yangi Qonun loyihalari*** ishlab chiqilganligini aolhida ta'kidlash joiz.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish va xarajatlarini kamaytirish hamda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2011 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1529-sonli Qarori qabul qilindi.

Qarorga asosan ***2011 yil 1 iyundan mashinasozlik, metallurgiya va***

kimyo sanoatining alohida tarmoqlarida faoliyat yurituvchi kichik korxonalar xodimlarining yillik o'rtacha soni 50 kishidan 100 kishigacha ko'paytirildi.

Shuningdek, 2011 yil 1 iyundan quyidagi tartiblar belgilandi:

- ***yangi tashkil qilinayotgan mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar ustav fondi*** (ustav kapitali)ning eng kam hajmi davlat ro'yxatidan o'tish uchun hujjatlar taqdim etilgan sanada qonunchilikda belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ***qirq baravaridan kam bo'lmashligi*** kerak;

- tadbirkorlik subyektlarini ***davlat ro'yxatidan o'tkazish*** ularning ***arizasiga ko'ra namunaviy ta'sis hujjatlari asosida*** amalga oshirilishi mumkin;

- tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish bo'yicha tegishli inspeksiyalarda tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun to'lanadigan ***davlat boji stavkasi eng kam ish haqi miqdorining bir baravariga tengdir***;

- tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda ***notarial tarzda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarini taqdim etish haqidagi talab bekor qilindi***, xorijiy investitsiyali korxonalar va chet el sarmoyasi ishtirokidagi boshqa korxonalar bundan mustasno.

Yuqorida keltirilgan amaliy ishlar bilan bir qatorda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatida uchrayotgan ***muammolar, hali yechimini topmagan masalalar ham mavjud***. Bizning nazarimizda bular quyidagilardan iborat:

1. Tijorat banklarida kichik tadbirkorlik subyektlariga kredit berish mexanizmining murakkabligi, ya'ni ko'p vaqt sarflanayotganligi va ortiqcha byurokratik to'siqlarning mavjudligi;

2. Bugungi kunda ko'pgina kichik tadbirkorlik subyektlarida buxgalteriya hisobini yuritish talab darajasida emasligi oqibatida moliya, soliq va statistika hisobotlarini tuzishda va o'z vaqtida taqdim etishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ko'pchiligida hisobchilarning yo'qligi, 10-15 ta subyektga bitta hisobchi to'g'ri kelayotganligi ham shundan dalolat beradi;

3. Yangi tashkil etilgan ko'pgina kichik tadbirkorlik subyektlari mutaxassislarining tegishli malakaga ega emasliklari, qonunchilikda bo'layotgan o'zgarishlardan hamda davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan xabardor emasliklari sababli faoliyatlarini yurita olmayotganligi yoki tugatib yuborilayotganligi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirish, ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda aholi daromadlarini ko'paytirish va farovonligini oshirishning eng muhimi ularni ta'minlashning iqtisodiy asoslaridan hisoblangan iqtisodiy faollikni ta'minlash asosiy omili bo'lib qoladi.

2.2 . Ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda kichik biznesning o'rni.

Iqtisodiy faollikni ta'minlashda va unga erishishda bozor iqtisodiyotining barcha subyektlarining samarali faoliyat yuritishlari talab etiladi. Bunda uning eng muhim subyektlaridan hisoblangan tadbirkorlar uchun ularni faoliyatini ichki omillari bilan bir qatorda tashqi omillar ham faoliyatini barqarorligini ta'minlashning asosiy jihatlari hisoblanadi.

Tashqi omillardan samarali foydalanish aksariyat jihatdan, iqtisodiy faollikning muhim tomoni hisoblangan ishchanlik muhitini shakllantirish va muntazam ravishda rivojlantirib borishga bog'liqdir.

Vaholanki, xalqaro iqtisodiy amaliyotda ishchanlik muhiti indikatorlarini hisoblash va uning natijalaridan foydalanish, mamlakatlar doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning qay darajada samaradorligidan dalolat berib, kelajakda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda foydalanilmayotgan salohiyatlardan unumli foydalanish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqishda muhim dastak bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda 2002 yildan bo'yon Xalqaro moliyaviy korporatsiya tomonidan har yili bir marta, 500ga yaqin KBXT subyektlari o'rtasida biznes muhitni baholash amalga oshirilib, "O'zbekistonda ishchanlik muhiti xususiy biznes vakillari nigohida" sharhlarida muntazam ravishda chop etib borildi.

Iqtisodiy faollikni ta'minlashdagi jarayonlar tendensiyasini asoslashni kichik biznes subyektlarining rivojlanish indikatorlarini tizimlashtirish va ularning mavjud holatini darajasini aniqlash orqali amalga oshirish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishimizda asosiy e'tiborni ushbu jarayonlarni nazariy jihatlarga qaratishga ustuvorlik berilganligidan kelib chiqqan holda, kichik biznesni rivojlanishini umumiy indikatorlarini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bizning fikrimizcha, ular o'z ichiga ushbu sektorning YAIM, band bo'lgan aholi, subyektlar sonidagi, jalb etilgan investetsiya va eksportdagi ulushi va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi o'sish sur'atlari ko'rsatkichlarini olishi maqsadga muvofiqdir.

Mana shunday yondashuv orqali, kichik biznes subyektlarining rivojlanish indikatorlari hisob-kitob qilinib, ushbu jarayonda sodir bo'lgan o'zgarishlar, erishilgan natijalar va erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlar aniqlandi.

Tahlillar natijasiga ko'ra kichik biznes subyektlarining YAIM ulushi (54%), faoliyat yuritayotgan subyektlar sonini o'sishi (8,5%), asosiy tarmoqlarda ishlab chiqarish sur'atlarini o'sishi (26,5%), va eksport hajmidagi ulushining (18,8%) yuqori darajasiga erishganligi bilan bir qatorda, band bo'lganlarning umumiy sonidagi ulushining ortishiga qaramay, yillik o'sish sur'atlarining pastligi (1%) va jami jalb etilayotgan investetsiyalardagi ulushining (20%) pastligini kuzatish mumkin (2.2.1-jadval).

Demak aksariyat indikatorlar bo'yicha kichik biznesni subyektlarini yuqori darajaga erishishlarida mamlakatda yaratilgan qulay ishchanlik muhiti asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Shuning uchun ham iqtisodiy faollikni ta'minlashdagi ishtiroki nuqtai nazaridan ishchanlik faoliyatini tashkil etilish jarayonlari va amalga oshirish mexanizmlariga oid tahlillarni amalga oshirish orqali ushbu sektoridagi imkoniyatlar, ulardan foydalanish darajasi, kamchiliklar

va nomutanosibliklarni aniqlash lozim deb hisoblaymiz.

Avvalambor, ishchanlik muhiti, xususan kichik biznes subyektlari faoliyatidagi ushbu jarayonni nimalarni o'z ichiga olishi, qanday va kim tomonidan tashkil etilishi, amalga oshirish mezonlari tizimi va ularni baholash kabi jihatlarini aniqlash zarur. Ishchanlik muhitini baholashda xo'jalik yuritish subyektlarini mavjud biznes holatdan qoniqishlari va uning zarurligini tan olishlarini aniqlash bilan bir qatorda tadbirkorlar o'rtasida so'rovlar o'tkazish orqali ishchanlik muhitini o'zgarish indekslarini hisoblash ishlarini muntazam ravishda amalga oshirib borish talab etiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida kichik biznes subyektlari iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratildi. Yuqorida ta'kidlangan ishchanlik muhiti o'z ichiga to'rtta jarayondagi, yoki tadbirkorlarning iqtisodiy faolligini oshirishga bevosita aloqasi bo'lgan-institusional, molliyaviy, moddiy resurslar va infratuzilmadan foydalanish hamda soliq muhitlarini oladi.

Ushbu muhitlarning har birini alohida muntazam ravishda o'rganib borish orqali iqtisodiy faollikni barqarorligini ta'minlashga erishish mumkin.

Dastlab, ishchanlik muhitini tashkil etish uchun institusional muhit asosiy o'rin egallaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlanish indikatorlari

Tartib raqami	Indikatorlar nomi	Indikatorlarni sifat va miqdor Baholash (%da)	O'zbekistonda shakllangan va mavjud holat
1	Mamlakat YAIM dagi ulushi	Maqsadli taqqoslash sifatida iqtisodiy rivojlangan davlatlarda shakllangan 50-70% darajasi asosida: O'rtacha daraja-20%dan 50% gacha va yuqori daraja-50%dan yuqorisi	O'zbekistonda KBXTning ulushini 56%ni tashkil etishi yuqori daraja ko'rsatkichi doirasida ekanligidan dalolat beradi
2	Sotilgan mahsulotdan olingan sof tushumning umumiy miqdori	Mavjud bo'lish darajasi: O'rtacha darajasi-30-60% gacha; Yuqori darajasi-60%dan yuqori	Olingan sof tushumning o'tgan yildagiga nisbatan o'sish sur'atlari asosida hisoblanadi
3	Band bo'lganlarning sonini o'zgarishi	Mavjud bo'lish darajasi: -past darajasi-1%	Respublikada 2014 yilda 2000 yilga nisbatan 26,8 % atrofida, ya'ni yuqori darajasida o'sishga erishilgan

Tartib raqami	Indikatorlar nomi	Indikatorlarni sifat va miqdor Baholash (%da)	O'zbekistonda shakllangan va mavjud holat
		atrofida o'sishi; -o'rtacha darajasi-2%dan-3 %gacha o'sishi; -yuqori darajasi-3% dan yuqori o'sish sur'atlari	
4	faoliyat yuritayotgan subyektlar sonini o'sishi	Mavjud bo'lish darajasi: past darajasi-2% atrofida o'sishi; -o'rtacha darajasi-2%dan-3 %gacha o'sishi; -yuqori darajasi-3% dan yuqori o'sish sur'atlari	2010yilda kichik biznes subyektlari fermer xo'jaliklarisiz 231717 ta ro'yxatga olinganlarning 201730 tasi ,yoki 87 % faoliyat yuritgan bo'lsa,2011 yilda mos ravishda 246441taning218921 tasi ,yoki,88% faoliyat yuritgan bo'lsa,2014 yilda 20000 dan ziyod yangn kichik biznes subyektlari tashkil etildi, ularning umumiy soni 195000 taning 165750 tasi faoliyat yuritgan bo'lsa, faoliyat yuritganlar sonini o'sish sur'atlari 8,5%ni tashkil etib, yuqori darajani tashkil etadi.
5	Asosiy tarmoqlarda kichik biznes rivojlanishi	Sanoatda: -past darajasi-5% gacha o'sishi; -o'rtacha darajasi-5%dan-15 %gacha o'sishi; -yuqori darajasi-15% dan yuqori	2006-2011 yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 26,5% ni tashkil etib,2011 yilda 2010 yilga nisbatan 23,3%ga o'sgan, 2014 yilda 2000 yildan 12,9 foizdan 31,1 % ga o'sgan,ya'ni, yuqori darajasidagi o'sishga erishilgan

Tartib raqami	Indikatorlar nomi	Indikatorlarni sifat va miqdor Baholash (%da)	O'zbekistonda shakllangan va mavjud holat
		o'sish sur'atlari	
6	Asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalar ulushi va texnologik tuzilishi	Mavjud bo'lish darajasi: past darajasi-22%gacha; -o'rtacha darajasi-20%dan-40 %gacha ; -yuqori darajasi-40% dan yuqori	2011 yilda asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalarning 20% kichik biznes subyektlari ulushiga to'g'ri kelgan,2014 yilda tijorat banklari tomonidan 2013 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p kredit ajratilgan bo'lib, yuqori darajaga erishilgan, mikro kredit banklari tomonidan ajratilgan investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan 39 % ko'p bo'lib, o'rtacha darajasiga erishilgan.
7	KBXT subyektlarini eksport faoliyatini rivojlanishi(ulushi)	Mavjud bo'lish darajasi: past darajasi-10 %gacha; -o'rtacha darajasi-10%dan-20 %gacha ; -yuqori darajasi-20% dan yuqori	2011 yilda 2010 yilga nisbatan eksport qilish sur'atlari 158,6 %ga o'sdi, 2014 yilda 500 dan ziyod kichik biznes subyektlari eksport faoliyatiga jalb etildi, jami eksportdagi ulushi 18,8%ni tashkil etgan bo'lib, o'rtacha darajadagi ko'rsatkichga ega.Tashqi iqtisodiy faoliyatda jami KBXT subyektlarining 6,0% ishtirok etmoqda.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, erishilgan yutuqlarda mamlakatimizda mavjud qonunlar bilan bir qatorda muntazam ravishda kichik biznes subyektlarining faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar tizimi amalga oshirilib kelmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevralda qabul qilingan 1475-sonli "Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq **kichik biznes subyektlari ishlab chiqaradigan mahsulotlarga keng miqyosda davlat buyurtmalari berilishi joriy qilindi.**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirishning, aholi bandligi va farovonligini oshirishning muhim vositasi sifatida mikromoliyalash sohasini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida 2011 yil 11 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1501-sonli Qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq banklarining imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasi resurslari hisobidan kredit berishdan olinadigan tijorat banklarining daromadlari bo'shaydigan mablag'larni mazkur jamg'armaning resurs bazasini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan **yuridik shaxslar foydasidan to'lanadigan soliqlardan 2011 yil 1 apreldan boshlab, 2016 yilning 1 yanvarigacha ozod etildi.** Tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasi mablag'lari asosan **olis va yetib borish qiyin bo'lgan tumanlarda, shuningdek mehnat resurslari keragidan ortiq bo'lgan tumanlar hamda shaharlardagi** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida, ishlab chiqarish mikrofimalari, kichik korxonalar, dehqon hamda fermer xo'jaliklarida **yuqori texnologik va innovatsion loyihalarni moliyalash uchun** ajratilishi belgilandi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining roli tobora oshib bormoqda. Jamg'arma tomonidan tadbirkorlarga tashqi bozorlarni o'rganish va chet ellik sheriklarni topish, xalqaro tender savdolarida ishtirok etish, shuningdek, eksport shartnomalarini tuzish, xalqaro sertifikatlar, ruxsat berishga oid hujjatlarni olish va bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha faol yordam bermoqda.

"Shu borada ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarurligini barchamiz albatta yaxshi tushunamiz"⁵

Mulknii ro'yxatga qo'yish, yer uchastkalari ajratish, ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziya olish, qurilishga ruxsat berish va elektr ta'minoti tarmoqlariga ulanishda "yagona darcha" tamoyilini amaliyotga joriy etish tobora kengayib bormoqda.

Kichik biznes subyektlari tomonidan statistik va soliq hisobotlarini taqdim

⁵ Каримов И.А. 2015-йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тadbirkorликка кенг йўл очиб бериш-устувор вазифамиздир. //Халқ сўзи. 17.01.2015 йил.

etish mexanizmlari sezilarli darajada soddalashtirildi. Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 %i soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirish bevosita –elektoron shaklda amalga oshirilmoqda.

Sanoatning yengil, oziq –ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarida ishchilarning eng ko‘p soni ilgari 100 kishidan 200 kishigacha oshirilgani kichik biznesni rag‘batlantirish borasidagi chora-tadbirlar tizimidagi muhim qaror bo‘ldi.

2014-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 9 trillion so‘mdan ortiq yoki 2013-yilga nisbatan 1,3 barobar ko‘p, shu jumladan, 2 trillion so‘mga yaqin miqdordagi mikrokreditlar ajratildi. Bu o‘tgan yilga nisbatan 39 foiz ko‘pdir. 2009-2014 yillarda kichik biznesni kreditlash hajmi qariyb 5 barobar ko‘paydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 28 martda qabul qilingan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yishning xabardor qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 1513-sonli Qaroriga asosan tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslarning ta’sis hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan taqdirda tadbirkorlik subyektining vakolatli boshqaruv organi tomonidan tegishli qaror qabul qilingan paytdan boshlab ***bir oy mobaynida (oldin 7 ish kuni qilib belgilangan edi)*** ularni ro‘yxatdan o‘tkazgan organga o‘zlari kelib yoki pochta aloqasi orqali murojaat qilishlari mumkinligi belgilab qo‘yildi. Mulkni ro‘yxatga qo‘yish, yer uchastkalari ajratish, ayrim faoliyat turlari bilan shug‘ullanish uchun litsenziya olish, qurilishga ruxsat berish va elektr ta’minoti tarmoqlariga ulanishda “yagona darcha” tamoyilini amaliyotga joriy etish tobora kengayib bormoqda.

Shuningdek, davlat va nazorat organlarining korxonalar moliya-xo‘jalik faoliyatiga aralashuvini tubdan qisqartirish, tekshirishlarni tashkil qilish tizimini yanada takomillashtirish va mansabdor shaxslarning ular faoliyatiga asossiz aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish, shu asosda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kuchaytirishni ta’minlash maqsadida 2011 yil 4 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4296-sonli Farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq quyidagilar belgilandi:

- ***yangi tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlarining*** moliya-xo‘jalik faoliyati ular davlat ro‘yxatiga olingan paytdan boshlab ***dastlabki uch yil mobaynida rejali soliq tekshirishlaridan o‘tkazilmaydi*** (aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish, shuningdek byudjet hamda markazlashtirilgan mablag‘lar va resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq tekshirishlar bundan mustasno);

- ***2011 yilning 1 apreldan 2014 yilning 1 apreligacha*** bo‘lgan davrda soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lab kelayotgan, shuningdek ishlab chiqarish sur‘atlarining barqaror o‘sishi va rentabelligini

ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini **soliq sohasida tekshirish taqiqlanadi** (yuridik shaxslarni tugatish chog'ida qo'zg'atilgan jinoiy ishlar doirasida, shuningdek byudjet hamda markazlashtirilgan mablag'lar hamda resurslardan foydalanish bilan bog'liq rejadan tashqari tekshirishlar bundan mustasno);

- kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini **soliq sohasida tekshirish muddatlarining** qonun hujjatlarida ularni o'tkazish ko'zda tutilgan maksimal muddatdan, ya'ni **30 kalendar kunidan ortiq muddatga uzaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi**.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish va xarajatlarini kamaytirish hamda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2011 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1529-sonli Qarori qabul qilindi.

Qarorga asosan **2011 yil 1 iyundan mashinasozlik, metallurgiya va kimyo sanoatining alohida tarmoqlarida faoliyat yurituvchi kichik korxonalar xodimlarining yillik o'rtacha soni 50 kishidan 100 kishigacha ko'paytirildi**.

Shuningdek, **2011 yil 1 iyundan** quyidagi tartiblar belgilandi:

- **yangi tashkil qilinayotgan mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar ustav fondi** (ustav kapitali)ning eng kam hajmi davlat ro'yxatidan o'tish uchun hujjatlar taqdim etilgan sanada qonunchilikda belgilangan eng kam ish haqi miqdorining **qirq baravaridan kam bo'lmazligi** kerak;

- tadbirkorlik subyektlarini **davlat ro'yxatidan o'tkazish** ularning **arizasiga ko'ra namunaviy ta'sis hujjatlari asosida** amalga oshirilishi mumkin;

- tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish bo'yicha tegishli inspeksiyalarda tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun to'lanadigan **davlat boji stavkasi eng kam ish haqi miqdorining bir baravariga tengdir**;

- tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda **notarial tarzda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarini taqdim etish haqidagi talab bekor qilindi**, xorijiy investitsiyali korxonalar va chet el sarmoyasi ishtirokidagi boshqa korxonalar bundan mustasno.

2011 yil 24 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4354-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq tadbirkorlik faoliyati subyektlarining barcha darajadagi davlat boshqaruvi idoralari, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, tijorat banklari bilan o'zaro munosabatlarida **tadbirkorlar huquqlari ustuvorligi prinsipiga amal qilinadi**, ya'ni, unga muvofiq, meyoriy-huquqiy hujjatlardagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha ziddiyatlar va noaniqliklar **tadbirkorlar foydasiga talqin etilishi belgilab qo'yildi**.

Shuningdek, farmonga muvofiq **2012 yilning 1 yanvaridan sanoat sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi**

stavkasi 6 foizdan 5 foizga kamaytirilishi belgilab qo'yildi.

Respublikada xususiy mulkchilikni rivojlantirish yo'lida ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda tadbirkorlik faoliyati ko'lamlarini kengaytirish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish va mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni ko'paytirishda kichik biznes subyektlarining faol ishtirok etishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2011 yil 25 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

1604-sonli Qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq hukumat qarorlari bilan belgilangan tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berishga doir tegishli hujjatlarning amal qilishi **2011 yilning 1 sentabridan boshlab bekor qilindi**. Shuningdek, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan **qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan ruxsatnomalar va ruxsat berish tartibotlarining yangi turlarini joriy etish qat'iy taqiqlandi**.

Shu bilan birga **2011 yil 1 oktabridan boshlab** quyidagi tartib o'rnatildi:

- kichik sanoat ishlab chiqarishlarni joylashtirish uchun yer uchastkalarini ajratishga doir murojaatlarni vakolatli organlar tomonidan ko'rib chiqish va kelishish muddati **bir oydan oshmasligi shart**;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi bilan birgalikda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining davlat mulki bo'lgan, vaqtincha bo'shab yotgan va ishlatilmaydigan xonalarni ularda ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirish uchun ijaraga berish bo'yicha murojaatlari **7 kun mobaynida** ko'rib chiqilishini ta'minlashga majburlar;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, shu jumladan, ishlab chiqarish obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun zarur bo'lgan ruxsat etuvchi hujjatlarni berish **"bir darcha"** tamoyili bo'yicha amalga oshiriladi, bunda vakolatli davlat organlariga ularni zarur hollarda kelishishni ta'minlash vazifasi yuklatiladi;

- ruxsat etuvchi hujjatlarni berish muddati tadbirkorlik subyektlari ariza bergan vaqtdan boshlab, **30 ish kunidan oshmagan holda chegaralanadi**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan alohida xususiyatli faoliyat turlari bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to'g'risida"gi 1672-sonli Qaroriga asosan **2012 yilning 1 yanvaridan boshlab**:

- mikrofirmalar va kichik korxonalarga mansub bo'lgan ommaviy axborot vositalari tahririyatlari, nashriyotlar, poligrafiya tashkilotlari, teleradioeshittirish kompaniyalari uchun **yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga**;

- chop etilgan mahsulotlarni sotishdan, muharrirlik xizmatlari, poligrafiya va nashriyot xizmatlarini ko'rsatishdan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

huzuridagi “Ijod” Jamg‘armasiga nashriyot va matbaa tashkilotlari to‘laydigan ***majburiy ajratmalar miqdori ikki foizdan bir foizga;***

- gazeta, jurnallar va kitob mahsulotlarini chakana sotishga ixtisoslashgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ***qat’iy belgilangan soliq stavkasi o‘rta hisobda 2 barobarga pasaytirildi.***

Keyingi yillarda, ya’ni 2005 yilga nisbatan taqqoslaganda, kichik korxona va mikrofirmalar uchun ***yagona soliq stavkasi 13 foizdan 5 foizga pasaytirildi.*** Buning natijasida bo‘shab qolgan qariyb ***80 milliard 300 million so‘m*** mablag‘ni birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yo‘naltirish imkoni paydo bo‘ldi.

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlariga ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash uchun o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan kreditlar ajratib kelinmoqda va kredit berish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirilishi pirovardida KBXT subyektlarini iqtisodiy faollikdagi rolini oshirish bilan bir qatorda, quyidagi institusional muhit ko‘rsatkichlarini sifat va miqdor jihatdan takomillashtirishni talab etadi, ya’ni:

- korxonani o‘z xoxishiga ko‘ra tugatish qiymati;
- korxonani o‘z xoxishiga ko‘ra tugatish muddatlari;
- ro‘yxatga olish jarayonidagi norasmiy to‘lovlar;
- kadastr tashkilotlarida xujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketgan xarajatlar va muddati;
- mahsulot va xizmatlarni sertifikatlash jarayonlarini murakkabligi;
- nazorat qiluvchi tashkilotlarga tashriflar soni va xarajatlari;
- mahalliy hokimyat tashkilotlarida xujjatlarni rasmiylashtirish va ro‘yxatdan o‘tkazishning murakkabligi va xizmatlari haqining qimmatligi;
- tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy asoslari.

Ishbilarmonlik muhitida moliyaviy resurslarning yetarli darajada, kerakli vaqtda va tadbirkorni foydalanish muddati hamda foiz stavkalarining darajasini bevosita bozor iqtisodiyoti subyektlarining har birining manfaatlariga mos kelishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ham moliyaviy muhitda quyidagi ko‘rsatkichlarning qulayligi ushbu jarayonning tub mohiyatini belgilab beradi. Jumladan:

- valyuta konvertatsiyasi murakkabligi;
- kredit olishda norasmiy va noqonuniy to‘lovlar;
- kafolat ta’minoti sharoiti;
- kredit olish jarayonida xujjatlarni rasmiylashtirishning murakkabligi;
- naqd puldan foydalanish;
- barcha manbalardan moliyalashtirish imkoniyatlari;
- majburiy sug‘urta xarajatlari;
- bank xizmatlari tarifi.

Moddiy resurslar va infratuzilmadan foydalanish

- temir yo‘llar bilan ta’minlanganlik darajasi va xizmatlari sifati;
- avtomobil yo‘llari sifati;

- Yoqilg'i moylash materiallari ta'minoti va sifati;
- konsalting,marketing, lizing va boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari;
- jihozlovchi, materiallar va mahalliy xomashyoning sifati;
- jihozlovchi, materiallar va mahalliy xomashyodan foydalanish imkoniyati;
- tabiiy gazni yetkazib berish va undan foydalanish sifati;
- elektr energiyasi yetkazib berish va undan foydalanish sifati;
- suv yetkazib berish va undan foydalanish sifati;
- internet, telefon aloqalari va boshqa xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi.

Soliq muhitini yaratishda mamlakatda shakllangan tadbirkorlik subyektlarini ixtisoslashuvi, ularning mahsulotlari va xizmatlariga ichki va tashqi talab hamda taklif, raqobat kabi bozor dastaklari muhim rol o'ynaydi.

Soliq muhitini quyidagi ko'rsatkichlar orqali ifodalash mumkin:

- soliq insfeksiyasidagi poraxo'rlik;
- elektron soliq hisobotini internet orqali topshirish imkoniyati;
- ijtimoiy to'lovlar va soliq stavkalari darajasi;
- soliq inspeksiyasi huzuridagi maslahat xizmatlari markazi sifati va foydalanish imkoniyati;
- soliq yuki;
- soliqlarning o'zgarishini o'z vaqtida xabardor etish;
- soliqlarni hisoblash va soliqqa oid xujjatlarni to'ldirish murakkabligi;
- moliya va soliq hisobotlarini topshirish muddati;
- kelajakda qulay ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmog'i kerak:
- mavjud meyoriy-huquqiy xujjatlarni yanada takomillashtirish va ulardan foydalanish darajasini oshirish;
- surovlar natijasida aniqlangan past- salbiy ko'rsatkichga ega bo'lgan muhitlar bo'yicha aniq amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- tadbirkorlarning ishlab chiqarish, mahsulotni saqlash, tashish, qayta ishlash va sotish bilan bog'liq jarayonlarida to'sqinlik qiluvchi omillarni muntazam ravishda bartaraf etish va ularni vujudga kelishiga sharoit yaratuvchi holatlarni oldini olishning keng qamrovli mexanizmlarini joriy etish;
- qulay ishbilarmonlik muhiti holati haqidagi ma'lumotlar bilan tadbirkorlarni muntazam ravishda tanishtirib,xabardor etib borishni keng yo'lga qo'yish.

Umumiy xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, kichik biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, keng erkinlik berish, byurokratik, tashkiliy va iqtisodiy to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni davom ettirish lozim. Bu borada tadbirkorlik faoliyati muhitining holati, shart-sharoitlari va amaldagi rivojlanish sur'atlarini mahalliy hokimiyatning faoliyatini baholashning asosiy mezoniga aylanishi masalasini qo'yilishi ham ushbu sektorning iqtisodiy faollikdagi rolini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYalashda KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Kichik biznesning rivojlanishi bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida qishloq xo'jaligi sanoat bilan integratsiyalash va savdo bilan qo'shilish orqali taraqqiy topmoqda. Shu bois jahon qishloq xo'jaligi bu sohaga aloqador bo'lmagan sohalar bilan qo'shib olib borish keng tarqalmoqda. Masalan, Yaponiyada shunday dehqon xo'jaliklari 80foizga yetib qoldi. Amerika fermerlarining qishloq xo'jaligiga aloqasi bo'lmagan sohalardan olayotgan daromadlari o'rtacha 63 foiz, Xitoyda 65 foiz, Janubiy Koreyada 40 foizni tashkil etadi.

Zamonaviy texnika vositalari va biotexnologiyalarning rivojlanishi asosida qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi munosabatlar murakkablashib bormoqda. Yaponiya hukumati o'tgan asrning 60-yillar oxiriga kelib, mamlakat hududini o'zlashtirishnin uchinchi rejasi haqida qaror qilgan edi. Bu qarorda qishloq xo'jaligini sanoat bila integratsiyalash zaruriyati ko'zda tutilgan. Hamma joyda qishloqni industrlashtirsh orqali mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish rejalashtirilgan. 1978 yil «Qishloq joylarida sanoat korxonalarini rivojlantirish haqida»gi qonun e'lon qilindi. Unda qishloq sanoatini tuzish tadbirlari tizimi ko'zda tutilgan edi. Shu qonun asosida "Har bir qishloqda bitta tovar" harakati boshlandi. Uning mazmuni shuki, har qaysi qishloqda raqobatbardosh sanoat mahsuloti ishlab chiqaradigan bitta korxona bo'lishi shart. Qishloq sanoatining rivojlanishi munosabati bilan «Bitta qishloqda yuzta tovar» shiorini ilgari surgan murakkab vazifa kun tartibiga qo'yildi.

AQSH iqtisodidagi kichik sektorning ulushi nafaqat yalpi ichki mahsulotda, balki unda ishlovchilar sonida ham katta. Kichik biznesni rivojlantirishning 900 dan ortiq markazlari kichik va o'rta firmalarga konsultatsiya beradilar, boshlovchi tadbirkorlarga biznes-rejalar tayyorlashda, davlat tashkilotlaridan moliyaviy yordam olishda ko'maklashadilar. 1,5 mingdan ko'proq kompaniyalarni birlashtirgan okrug kengashlari seminarlar o'tkazadilar, tadbirkorlarni o'qitadilar, kichik firmalar faoliyatini tashkil qilish bo'yicha ma'lumotnoma-qo'llanmalar

tuzadilar.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida kichik biznesni rivojlantirish uchun 330ga yaqin maxsus uzoq, o'rta va qisqa muddatli dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunda mazkur dasturning yarmidan ko'prog'i iqtisodiyotning turli sohalarida kichik biznesni shakllantirish maqsadida turlicha kreditlash va ishlab chiqarish infrastrukturasini rivojlantirish, tabaqalashtirilgan soliq, solish shaklida amalga oshiriladi.

Yaponiyada ham kichik biznes sezilarli rol o'ynaydi. Bunga kichik va o'rta kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan tizimi yaratilganligi imkon berdi. Shu narsa diqqatga sazovorki, Yaponiya qonunchiligi kichik va o'rta korxonalarni ular rivojining barcha bosqichlarida imtiyozli qarz va kreditlar berish, turli soliq, imtiyozlaridan foydalanish, texnika va maslahat yordami ko'rsatish, axborot xizmatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish asosida rag'batlantirishni nazarda tutadi. Yaponiya sanoatining bu sektorida kichik biznes shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil soliq, imtiyozlari va puxta moliya siyosati bilan bir qatorda kichik korxonalarga kredit beruvchi xususiy banklarga beriladigan kafolatlar tizimidir.

Janubiy Koreya, Singapur va Gonkongda kichik va o'rta korxonalarga zarur kapitalning 50 foizgachasi davlat tomonidan berilgan, shuningdek davlat uzoq, muddatli kreditlar bo'yicha foizlar summasining yarmini to'lashni ham o'z zimmasiga olgan. Quyidagilar ham kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlovchi muhim tadbirlar turiga kiradi: xomashyo va asbob uskunalarni qat'iy baholarda yetkazib berish kafolatlangan davlat xaridi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida kichik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni turli moliya-kredit muassasalari: Peruda Rivojlanish moliya korporatsiyasi, Boliviya Los va Andes Omonat kassasi va Birdamlik banki, Urugvayda Milliy rivojlanish korporatsiyasi, Kolumbiyada milliy Kafolat fondi va boshqalar qo'llab-quvvatlaydilar.

Kichik tadbirkorlik sektori turli mamlakatlar iqtisodiyotida nihoyatda muxim vazifani bajarmoqda. Ushbu sektor bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur tezkorlikni ta'minlaydi, ishlab chiqarishda chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan kooperatsiyani yaratadi. Zero, bularsiz yuksak samaradorlikni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Masalan, AQShda turli yo'nalishdagi 19 mln.dan ortiq mustaqil firmaning 90 foizdan ziyodi mayda korxonalaridir. Yaponiyada o'rta va kichik korxonalar tarkibiga kiradigan 10 mln.dan ortiq mustaqil kompaniyalar mavjud bo'lib, ularning 99 foizi kichik biznes sektorida faoliyat ko'rsatar ekan, AQSH va Yaponiyada ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning 50 foizdan ortig'i ana shunday korxonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

AQShda yangi ishchi o'rinlarining 3 dan 2 qismi mayda firmalarda tashkil etilmoqda. Masalan, 1970 yilda 264 mingta, 1980 yilda 532 mingta, 1988 - 1990 yillarda 682 mingta kichik korxona va firmalar tashkil topishi aholini ish bilan ta'minlashda katta imkoniyat yaratdi. Xullas, kichik biznes AQSH taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda Buyuk Britaniyaning ham o'ziga xos yo'nalishi bo'lgan. 1970 yilda hokimiyatni boshqargan E.Xito kichik biznesga jiddiy ahamiyat bergan va 1971 yil Bolton komissiyasini tuzgan. Komissiyaga kichik biznesning ahvolini o'rganib borishni va uni rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritishni topshirgan. Natijada, kichik va o'rta biznes taraqqiyoti uchun eng qulay sharoit yaratilgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, mazkur yillarda tashkil toptan kichik va o'rta biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi firmalardan 96 foizining har birida ishchilar soni 20 nafardan oshmagan. Umuman, rivojlangan mamlakatlarda mehnatga layoqatli kishilarning 70-90 foizi kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanadi.

Germaniya sanoat ishlab chiqarishining eksportdagi eng katta ulushi bilan ajralib turadigan davlatlar sirasiga kiradi. Mazkur mamlakat tovar aylanishi bo'yicha Yevropada birinchi o'rinda turadi. Uning tajribasidan o'rganib, xayotga tatbiq etsa arziydigan jihatlar juda ko'p. Aniq, puxta, o'z vaqtida, bekamu-ko'st bajarish bilan birga doimo har qanday talabga hozir bo'lish kabi qoidalar shunday jihatlardan sanaladi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida endigina o'z faoliyatini boshlagan tadbirkorning bu qoidalarga e'tibor berishi sifat ko'rsatkichlari oshishi hamda ortiqcha xarajatlar kamayishiga olib keladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omili, iqtisodiy konyunkturaning o'zgarishlariga tez moslasha oladigan, yangi texnika va texnologiyalarni doimiy ravishda talab qiladigan, mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan xo'jalik subyektlari sifatida keng faoliyat yuritmoqda. Darhaqiqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini izchil rivojlantirish natijasida aholini yangi ish joylari va daromad manbai bilan ta'minlash, joylarda tashabbuskorlikni rag'batlantirish orqali aholi orasida tadbirkorlik ko'nikmalarini ommalashtirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari milliy iqtisodiyotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, bugungi kunda kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida mamlakatda o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, ichki bozorni nisbatan arzon va sifatli zaruriy tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, yangi ishchi o'rinlarini yaratishga, shuningdek, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksportga yo'naltirish orqali mamlakatimizning eksport salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda biz turli manbalarni o'rganish asosida rivojlangan va rivojlanish bosqichiga kirayotgan bir necha xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribalarini o'rganish va tahlil etish asosida ulardan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning salmog'ini oshirishga tatbiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan majmuaviy kompleks tuzilma bo'lib, bunda tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish qonuniy asoslab qo'yilgan hamda tadbirkorlar imtiyozli sur'atda kredit resurslari imkoniyatlaridan

foydalanadilar. Imtiyozli soliq to'lash imkoniyatlariga ega, ishlab chiqarish, moliya, fan, bozor infratuzilmasidagi jami afzalliklar va yangiliklardan, o'zlariga manfaatli bo'lgan iqtisodiy o'sishga ko'maklashuvchi barcha omillardan foydalanadilar. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, biror bir mamlakatda davlat kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga doir maqsadli va qat'iy iqtisodiy siyosat yuritar ekan, albatta o'z hududida yashovchi aholining iqtisodiyotdagi tuzilmalarining o'ziga xos xususiyatlarini, mentalitetini va shu kabi boshqa omillarni ham hisobga olishi zarur.

Masalan, Germaniyada davlat qishloq joylarida sexlar ko'rinishidagi kichik-kichik ishlab chiqarish xo'jaliklarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun har tomonlama rag'batlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilib, qishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqaruvchilarining ma'lum bir ekin turiga yoki o'simlikka ixtisoslanmaganligi, oziq-ovqat va nooziq-ovqat, iste'mol mollarining ishlab chiqarilishi keng yo'lga qo'yilishiga katta ahamiyat bermoqda. Yaponiyada esa kichik va yirik kooperatsiya tarmoqlarini shakllantirish, mayda va o'rta biznes imkoniyatlarini rivojlantirib, yirik korxonalar tizimini yaratishga, tashqi bozorlarda yapon maxsulotlarining, yapon texnologiyasining qadru-qimmatini oshirishga alohida e'tibor berila boshlandi.

Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarda ham dastavval kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rniga alohida ahamiyat berilgan. Qisqa muddatda Yevropa iqtisodiyotining asosiy ustunlaridan biriga aylangan Germaniyada o'tkazilgan qat'iy davlat siyosati natijasida mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes rivojlantirildi va urushdan keyingi yillar mobaynida kichik biznes taraqqiyoti 10 foizdan 65 foizgacha yetdi.

Yaponiya ham iqtisodiyotda kichik biznesni jadal rivojlantirishi natijasida "yapon mo'jizasi"ni yaratib, dunyoda bu boradagi eng yuksak natijalarni qo'lga kiritdi, ya'ni, Yaponiyada aholi jon boshiga 38000 AQSH dollari hisobida daromad kela boshladi, xolbuki, kichik biznesni rivojlantirish borasidagi islohotlar boshlanishidan avval bu ko'rsatkich atigi 600 AQSH dollarini tashkil etardi, xolos. Jahon sanoatida yetakchi o'rinda turadigan Yaponiyaning «Yamaxa» transmilliy kompaniyasi butun dunyo bo'yicha yiliga bir necha o'n milliard AQSH dollariga teng mahsulot ishlab chiqarmoqda, xolbuki mana shu "naxang", kompaniya ham o'z faoliyatini 40-yillar oxirida 7 nafar odam ishlaydigan velosiped tamirlashni amalga oshiruvchi kichik kooperativ (ustaxona) shaklida boshlagan edi.

2000 yillargacha o'tgan 20 yil (1980-2000 yy.) davomida Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) o'z iqtisodiyotini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochish asosida tashkil etishi natijasida mamlakat iqtisodiy, siyosiy va davlat inqirozidan ko'p ko'rsatkichlar bo'yicha chiqib ketdi va jahon taraqqiyotida o'zining munosib o'rnini topdi. Yutuqlar shu darajada qoyil qolarliki, global iqtisodiy tahlil markazlari hisoblangan Butunjahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasining tan olib aytishicha, bunday "taraqqiyot tezligi"da Xitoy iqtisodiy rivojlanish absolyut ko'rsatkichlari bo'yicha 2015-2020 yillarga kelib, AQSH va Yaponiyadan o'zib ketishi mumkin. Keyingi 20 yil davomida XXRning YAIM bir necha barobar o'sib, 1998 yilda 8 trln. yuan (taxminan 1 trln. AQSH dollari)ga

yetdi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad 16 marta – 184 yuandan 2972 yuangacha, aholining pul jamg'armalari 254 martaga (450 mlrd. AQSH doll.) oshdi. Bu davrda YAIMning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 10 foizni, jumladan, sanoatda – 15,8 foiz, qishloq xo'jaligida 7 foizni tashkil etdi. Bu esa davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishga sarflaydigan ulkan ichki investitsiya jamg'armasining shakllanishiga asos bo'ldi.

XXR iqtisodiyotining jadal rivojlanishining asosiy sabablaridan yana biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va xorijiy investorlar faoliyatining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va ximoyalanihidir. Buning tasdig'i sifatida shuni ko'rsatish mumkinki, 1979 yildan xozirgi vaqtgacha Umumxitoy xalq vakillari yig'ini (UXVY) va UXVY Doimiy qo'mitasi tomonidan 328 ta qonunlar ko'rib chiqilib, ular bo'yicha sharh va qarorlar qabul qilingan. Davlat kengashi orqali XXR hukumati moliyaviy-iqtisodiy va bozor munosabatlarining turli jihatlarini tartibga soluvchi 700 dan ortiq meyoriy xujjatlar chiqardi.

Xitoyda iqtisodiy islohotlar va modernizatsiyalashning ajoyib va original jihatlaridan yana biri bu "ochiq" iqtisodiy siyosatning olib borilishidir. Bu siyosat o'z aksini shunda namoyon qiladiki, mamlakatda maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilgan, 14 ta yirik dengiz portlari va shaharlar ochiq deb e'lon qilingan. Butun Xaynan provinsiyasi (shu nom bilan ataluvchi orolda joylashgan) maydoni maxsus ochiq iqtisodiy hudud deb e'lon qilindi. Shanxayda Pudun yangi iqtisodiy rayoni tashkil etildi va x.k.

Ochiqlik siyosati esa, avvalo, mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini xalqaro amaliyot talablari asosida olib borish imkonini berdi. Natijada tashqi savdoda islohotlar amalga oshirildi, valyuta tushumi xarajatlarini rejalashtirishga chek qo'yildi, muntazam va bosqichma-bosqich ravishda bojlarning umumiy miqdori kamaytirilib borildi. Xorijiy kapital qo'yilmalar uchun Markaziy bank va davlatning huquqiy va iqtisodiy kafolatlarini belgilovchi kompleks tizim yaratildi.

"Ochiqlik siyosati" va qulay investitsion iqlimning yaratilishi Xitoyni iqtisodiyotga chet el kapitalini kiritish bo'yicha AQShdan keyingi, ikkinchi markazga aylantirdi. Islohot yillarida Xitoyda 370 mlrd. AQSH dollaridan ko'proq chet el kapitalidan foydalanilgan. Xorijiy kapital ishtirokida 300 mingdan ziyod investitsion loyihalarni amalga oshirishga erishilgan. Bunda 17,5 mln kishi band bo'lgan.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida Janubiy Koreya, Isroil, Malayziya va Iordaniya davlatlarida ham foydali tajribalar to'plangan.

So'ngi yillarda Isroil davlati kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatni ishlab chiqib, 1998 yilda kichik biznes rivojlantirish bo'yicha 64 ta markaz tashkil etildi.

Iordaniyada kichik mayda ishlab chiqaruvchilar iqtisodiyotning notartib sektori deb ataladigan sektorni tashkil etadigan xo'jalik subyektlaridir. Unga quyidagilar kiritiladi:

-band bo'lgan xodimlar soni 9 kishidan ortmaydigan mayda sanoat

korxonalari, shuningdek, texnikani ta'mirlaydigan va xizmat ko'rsatadigan ustaxonalar;

- sex va uylarda amalga oshiriladigan, yollanma va oila mehnatidan foydalaniladigan hunarmandchilik ishlab chiqarishi;

- uy xizmatkorlari, xaydovchilar, yuk ortuvchilar, korovullar, oshpazlar va boshqalarni o'z ichiga olgan shaxsiy xizmatlar sohasi;

- mayda chakana savdo va maishiy xizmat ko'rsatishni o'z ichiga olgan mayda an'anaviy xizmat va an'anaviy transport sohasi.

Shu paytgacha bozor tarkibida band bo'lganlar soni bo'yicha notartib sektor kichik korxonalar sohasidan bir yarim baravar ko'p bo'lib, ustunlik qilib keladi.

Iordaniyada mayda tovar ishlab chiqarishining, zamonaviy mehnat qurollarini chiqarish va ta'mirlash, elektr maishiy va radioelektron texnika, tibbiy uskunalar, avtotransportni ta'mirlash tarmoqlari va xokazolar tobora keng tarqalmokda. Bu tarmoqlar yirik shaxarlarda ko'proq rivojlangan. An'anaviy tarmoqlarning asosiy qismi esa kichik chekka shaxarlarda jamlangan. Ta'mirlash tarmoqlarida konveyer tizimi qo'llanadigan ustaxonalar ustunlik qiladi. Unda muayyan ishchilarning izchillik bilan bajarilgan qo'shma mehnati natijasi so'nggi mahsulot hisoblanadi. Bunday muassasalar ko'pincha kichik xususiy korxonalarga aylanadi.

Mayda ishlab chiqarish qishloq-shahar yo'nalishida ko'chib yurishni sekinlashtiradi. Chunki asosiy korxonalar uchun xom ashyo avval uni tayyorlovchi dehqonlardan qishloqdagi yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi kasanachi ustalarga va ulardan keyingina u tugal qayta ishlaydigan korxonalarga keladi. Raqobat sharoitida bunday ko'p bosqichli aloqalar dehqonga va shaxar vakiliga qo'shimcha mablag'lar olib keladi.

Iordaniyada ilmiy-texnika yutuqlarining tarqalishi va transmilliy kompaniyalarning kirib kelishi mayda ishlab chiqarishning zamonaviylashishi, uni ishlab chiqarishning zamonaviy asboblari va vositalari bilan ta'minlanishiga olib keldi. Bu esa yanada zamonaviyroq mahsulot ishlab chiqarishga o'tish imkonini berdi. Shu bilan birga, tovar ishlab chiqaruvchilarning asosiy qismi yangi ishlab chiqarish vositalarining qimmatligi tufayli bugungi kungacha ishlab chiqarishning an'anaviy vositalaridan foydalanadi.

Zamonaviy ishlab chiqarishlarda texnika bilan ta'minlanish va energiyadan foydalanish darajasi an'anaviyga qaraganda yuqoriroqdir. An'anaviy mayda tovar ishlab chiqaruvchilari aylanma mablag'lari tuzilmasida mashina va uskunalarining qiymati emas, balki xom ashyoning qiymati ko'proq ulushni tashkil etadi. Bu esa gilam to'qish, charm va muynadan, rangli metallardan, sun'iy va tabiiy qimmatbaxo toshlardan ishlangan buyumlar ishlab chiqarish uchun xosdir. Bunday tarmoqlar uchun aylanma mablag'lar mikdori asosiy aylanma mablag'lar miqdoridan 25-30 baravar oshadi.

Shu tariqa, Iordaniyada rivojlanishning murakkabliklari va bir xil emasligiga qaramay, mayda ishlab chiqarish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasining muhim qismi hisoblanadi. U jamiyatning xo'jalik tuzilmasini ko'p jihatdan belgilaydi va kichik tadbikorlikning asosiy negizini tashkil etadi. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida asosiy iste'mol tovarlariga bo'lgan extiyoj o'rtacha har to'qqiz oyda

o'zgarib turishi kuzatilgan. Shuni hisobga olsak, aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatining afzalliklari yanada yaqqol, yorqinroq namoyon bo'ladi. YA'ni ular iqtisodiy taraqqiyotning mustahkam va ravon yo'lga tushib olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi jadvalda turli xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznesning o'rnini to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Statistik ma'lumotlarda qayd etilishicha, rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 50-67 foizi kichik biznes korxonalari hissasiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich AQShda 50-52 foizni, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 63-67 foizni, Yaponiyada 52-55 foizni tashkil etadi. MDH mamlakatlarida esa kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan past ko'rsatkichni tashkil etmoqda.

Yaponiyada barcha kompaniyalarning 99,6 foizi, sotilgan mahsulotning 55 foizi va sanoatda band bo'lganlarning 80 foizi kichik va o'rta korxonalar ulushiga to'g'ri keladi. Bunday yuqori kursatkichlar ko'pchilik tadbirkorlarning kichik biznesga jalb etilganligidan dalolat beradi. Mazkur mamlakatda kichik biznes sohasi juda ko'p korxonalarni (uy xo'jaligidan boshlab to zamonaviy texnikalar bilan qurollangan firmalargacha) qamrab oladi.

3.1.1-jadval

Dunyoning ba'zi mamlakatlari iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning o'rnini

Mamlakatlar	Kichik biznes korxonalari soni		Kichik biznes ulushi, foiz xisobida	
	ming dona	ming kishi xisobiga	jami ish bilan bandlar soni	yalpi ichki mahsulot
AQSH	19266	71,0	53	49-51
Yevropa Ittifoqi mamlakatlari	14981	46	74	64-65
Buyuk Britaniya	2917	46	49	55-53
Germaniya	2229	37	46	53-54
Italiya	3917	68	73	58-60
Fransiya	1889	35	54	55-60
Yaponiya	6434	49,6	78	52-55
Rossiya	834,4	6,3	9,7	10-12
O'zbekiston*	389,20	9,2	76	46-48

Aytish joizki, mazkur davlatlarda kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rniga XX asrning 70-yillaridan boshlab munosib baho berib, unga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirib kelingan.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirish siyosatida kichik va yirik korxonalarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash tendensiyasi amalda qo'llaniladi.

Masalan, AQSH qonunchiligida “500 ming dollardan ortiq miqdordagi to‘g‘risidan-to‘g‘ri federal bitim tuzishda yirik firmalar bu bitim bo‘yicha bajariladigan ishlarning ma‘lum bir qismi (foizi)ni kichik korxonalarga berishi (ya‘ni ular orqali bajarishi) shartligi belgilab qo‘yilgan».

Bu qonunga rioya etishni esa «Kichik biznes ishlari bo‘yicha ma‘muriyat» tomonidan nazorat qilib boriladi. Shuningdek, turli xil tashkilot hamda yirik korxonalarning kichik korxonalarga moliyaviy yordam berishga qiziqishini va manfaatdorligini oshirish uchun «Kichik biznes ishlari ma‘muriyati» kichik biznes korxonalarini kreditlashda kreditorlarga kreditni to‘lay olmaslik xavfini kamaytirish maqsadida zayom kapitalining 90 foizigacha davlat kafolatini beradi (sug‘urtalaydi). Bunday siyosatni amalda tadbiqui tufayli keyingi yillarda yirik korporatsiyalarning o‘z faoliyatlarida kichik biznes korxonalariga alohida ishlar va xizmatlar turlarini berish orqali yuksalishga erishmoqdalar. Chunki, ularning bajarilishi aynan kichik korxonalarda sifatli va samarali bo‘lmoqda.

3.1.2-jadval

Ba‘zi rivojlangan mamlakatlarida kichik va o‘rta biznes rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari (foizda)⁴³

Davlatlar	Kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi	Kichik va o‘rta biznesning umumiy bandlikdagi ulushi	Jami korxonalar tarkibida kichik va o‘rta biznes korxonalari ulush
AQSH	52	50,1	97,6
Kanada	43	47	99,8
Yaponiya	51,6	69,5	99,2
Germaniya	57	69,3	99,3
Fransiya	49,8	56,6	97,6
Italiya	55	71,0	99,2
Buyuk Britaniya	52	55,5	99,1

“Iqtisodiy rivojlanish milliy kengashi” tomonidan muntazam ravishda kichik firmalarning ixtisoslashgan katalogi chiqarilib, bu orqali esa yirik kompaniyalar o‘zlarining kichik biznesdagi potensial hamkorlarini tanlab olishlariga imkon yaratiladi. Shuningdek, kichik va yirik biznes o‘rtasidagi aloqani o‘rnatishni amalga oshiruvchi maxsus markazlar yaratilgan. Kichik biznesga katta yordam beradigan tashkilot va yirik kompaniyalardan: Savdo va sanoat vazirligining, «Djeneral elektrik», “Neshil kompyuter” firmalarining axborot markazlarini alohida ko‘rsatish mumkin.

Yaponiyada barcha kichik sanoat firmalarining 60 foizdan ko‘prog‘i yirik firmalar bilan subpodryad asosida ishlaydi. Korxona – subpodryadchi turli

⁴³ «Деловая среда в Узбекистане глазами представителей малого и среди бизнеса». Отчет Международной Финансовой Корпорации по итогам 2010 г. - 21 с.

masshtabdagi subpodryad kompaniyalarga kiruvchi yirik kompaniyalarning yarim mustaqil a'zolari bo'lib, bu subpodryad kompaniyalar o'z navbatida markaziy kompaniyalar atrofida guruhlangan bo'ladi.

Subpodryadchilar o'z mablag' (kapital)lari hisobidan texnologik jarayonlarning salmoqli qismini tashkil etadilar, detallar va butlovchi qismlarni yetkazib beruvchilar hisoblanadilar, tayyor mahsulotlarning ta'minotini ta'minlaydilar. Ta'kidlash joizki, "Sony" korporatsiyasining faqat o'zi bevosita texnologik rejada 1100 dan ko'proq kichik korxonalar bilan ishlaydi. Bunday tendensiyaning rivojlanishi soliq to'lash tizimida qonunda ko'zda tutilgan imtiyozlar bo'yicha bu kichik korxonalar uchun "kam bo'lmagan darajada" foyda olishga sabab bo'lmoqda⁴⁴.

Xorijiy mamlakatlar tajribalarida, **birinchidan**, rivojlanayotgan mamlakatlarda muhim iqtisodiy omillardan biri, bu kichik biznes rivoji bo'lib, bu boradagi har qanday umummanfaatini ko'zlagan samarali faoliyatlar davlat ahamiyatiga ega bo'ladi va qo'llab-quvvatlanadi. Zero, kichik biznes faoliyati o'sib, yanada samarali biznesga aylanishi, mamlakat ichki bozorini tovar hamda xizmatlar turlari bilan to'ldirishi, shu tariqa eksport salohiyati rivojiga hissa qo'shilishi, aholining ish bilan bandligi muammosi yechilishiga ko'maklashuvi, aholining real daromadi o'sishiga, pirovard natijada aholinining turmush darajasini yuksalishiga olib keladi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida, jahon bozorida raqobat kuchayayotgan bir paytda, yirik korxonalardan ko'ra aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida raqobatga dosh berish, manevrlar qilish, ishlab chiqarish yo'nalishini o'zgartirish kabi iqtisodiy chora tadbirlar ko'rish oson kechadi.

Ko'rinib turibdiki, xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning rivojlangan tizimi mavjud bo'lib, bu hol raqobatning kuchayishi sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy muhitning barqaror taraqqiy etishini ta'minlaydi. Bu esa, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmining to'laqonli rivojlanganligidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, jahon amaliyotida hamda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik biznes ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o'rinlarini barpo qilishda, bozor o'zgarishlariga nisbatan tez moslashishda va mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlamoqda. Ko'pchilik mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rniga, uning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi bozor munosabatlarini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berilmoqda.

3.2. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda kichik biznesni rivojlantirishda raqobatbardoshlik munosabatlarini qaror toptirish

⁴⁴ Малый, средний и частный бизнес. Ежеквартальный информационный бюллетень для предпринимателей. Республиканская научно-техническая библиотека. ГФАГИ. 2009.

Respublikada amalga oshiralayotgan iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish va isloh qilish hozirgi kunning asosiy vazifasi bo'lib, shu yo'l orqali davlatimiz iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy vazifalarni hal etishi oson kechadi. Bunda respublikaga chet el investitsiyasini jalb qilish, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va mustaxkamlash, tadbirkorlikka erkinlik berish va zarur shart-sharoit yaratish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab olindi.

Aholini ijtimoiy himoya qilishda davlat mahalliy boshqaruv organlarining roli ahamiyatli bo'lgani holda ular kichik biznes korxonalarini rivojlantirishda ham e'tibordan chetda qolmasliklari lozim. Mahalliy boshqaruv organlari tadbirkorlarni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish binolari, ombor, shuningdek savdo joylari bilan ta'minlash muammolarini hal etishda yetakchilikni o'z zimmasiga olishi lozim. Chunki o'z xududida kichik biznesni jadal rivojlanishidan ko'proq mahalliy boshqaruv organlari manfaatdordirlar va o'z hududlarida joylashgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy salohiyatini, bandlik darajasi to'g'risida operativ va kengroq ma'lumotga ega bo'ladilar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ma'lum hududda samarali ishlashi shu hududda joylashgan bog'cha, maktabga ijtimoiy yordam ko'rsatish va boshqa xayriyalar natijasida shu hududda yashovchi aholining yashash darajasi oshadi, ijtimoiy ziddiyatlarning oldi olinadi. Hozirgi vaqtda faoliyat olib borayotgan turli o'quv kurslari, jumladan, pishiriqlar pishirish, tikuvchilik, sartaroshlik singari kurslarning tashkil etilishi xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Bunday kurslarning O'zbekistonning turli viloyatlarida faoliyat olib borishlari natijasida yana qo'shimcha ish joylari tashkil etilmoqda. Demak, kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi iqtisodiy islohotlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti eski, samarasiz xo'jalik yuritish mexanizmi o'rniga bozor munosabatlarini shakllantirishga karatilgan maxsus chora-tadbirlar tizimi raqobat muhitini yaratadi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari tamoyillariga amal qilgan holda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, raqobat munosabatlarini rivojlantirish ancha murakkab va uzoq davrni oluvchi jarayon hisoblanadi.

Sog'lom raqobatni rivojlantirishda aksariyat hollarda o'tish davri iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan quyidagi muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

- tarmoqlar tuzilishidagi nomuvofiqliklar va ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalarning yetishmasligi;
- soha va tarmoqlar miqyosidagi raqobatda adolat mezonlarining buzilishi;
- mansabdor shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati borasida suiste'mollik holatlariga yo'l qo'yilishi;
- narx belgilashda monopol mavqening saqlanib qolishi, xususan iqtisodiyotning agrar va industrial sektorida narxlarning keskin farqlanishi;
- mamlakatga tovarlarning kontrabanda yo'li bilan kirib kelishi;
- faoliyat turini va daromadlarni yashirish holatlarining mavjudligi;

- sogʻlom pul muomalasi uchun hozirgi sharoitdan kelib chiqadigan bozor infratuzilmasining yetarli emasligi;

- milliy valyutani xorij valyutalariga erkin almashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi;

- subyektlarning bozor iqtisodiyoti qoidalarini chuqur tushunib yetmasliklari;

- iqtisodiy jinoyatchilik holatlarining mavjudligi.

Iqtisodi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida raqobat bozor xoʻjaligining ajralmas qismi sifatida tabiiy ravishda paydo boʻlgan boʻlsa, oʻnlab yillar davomida maʼmuriy buyruqbozlik tartibi hukmron boʻlgan, raqobatni va bozorning boshqa belgilarini tan olmagan mamlakatlarda bu jarayon elementlarini "joriy qilish" va hatto majburan qabul qilishga toʻgʻri keladi. Shu munosabat bilan iqtisodiyotning oʻtish davri holatida raqobat munosabatlarini rivojlantirishning mavjud real imkoniyatlarini hisobga olish muhim rol oʻynaydi.

Birinchidan, raqobatsiz iqtisodiyotning samarali harakat qila olmasligiga ishonch shakllandi. Bu ishonch taʼsirida yaqin vaqtlargacha xukmron mavqega ega boʻlgan rejali-buyruqbozlik tizimining gʻoyaviy qarashlari yemirilmoqda. Ikkinchidan, respublikada raqobatni davlat gomonidan ragʻbatlantirish va tartibga solishning keng rejali harakatlari shakllanmoqda. Uchinchidan, raqobat hali keng joriy qilinmasada, bozor iqtisodiyotiga oʻtishda muhim qadamlar qoʻyilmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga oʻtish davrida raqobatni shakllantirishning asosiy tamoyillari qatorida, eng birinchi navbatda, bozor munosabatlarining qaror toptirilishini taʼkidlash mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Raqobatning toʻlaqonli amal qilishi iqtisodiy jarayonlarning erkinligini taqozo etadi. Iqtisodiyotdagi faoliyat va jarayonlarning erkinligining har qanday koʻrinishdagi cheklanishi oʻz navbatida raqobatning ham cheklanishi holatlariga olib keladi. Bugungi kunda maʼmuriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga oʻtayotgan koʻplab mamlakatlar uchun erkinlashtirish jarayonlarini amalga oshirish tamoyili xos boʻlib, bu quyidagi hodisalarni sodir boʻlishi bilan bolgʻliq:

- koʻp ukladli iqtisodiyotni shakllantirish;

- xususiy sektorni rivojlantirish;

- raqobat muhitini yaratish, yakkahukmronlik holatini bartaraf etish va monopoliyaga qarshi tartiblashni takomillashtirish;

- bozor infratuzilmasini rivojlantirish, moliya va bank tizimini takomillashtirish, bank islohotlarini jadallashtirish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat hamda valyutani tartibga solishni erkinlashtirish;

- xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga davlatning aralashuvini cheklash. ularning iqtisodiy va moliyaviy masʼuliyatlarini oshirish, bankrotlik instituti rolini kuchaytirish, xoʻjalik sudlarini faollashtirish. Shuningdek, taʼkidlash oʻrinliki, faoliyat erkinligi, har bir kishining tanlash imkoniyatiga ega boʻlishigina raqobat uchun keng yoʻl ochadi va bu jarayonda kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda raqobat muhitining shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular rivojlanishining asosiy yo'nalishlari savdo, umumiy ovqatlanish, moliyaviy va sayyohlik xizmatlari hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish, ular barqaror tashqi iqtisodiy faoliyatini kuchaytirish maqsadida davlat tomonidan qulay shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda. Xususan, davlat tomonidan lizing xizmatlari tizimini rivojlantirish, kredit ittifoqlarini shakllantirish va kichik biznes korxonalariga xizmat ko'rsatadigan bank-moliya institutlari vujudga keltirish maqsadida barcha imkoniyatlar hozirlangan.

3.2.1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mahsulotlari raqobatbardoshligi strategiyasini solishtirish

Strategiya	Ustunligi	Bozor sharoiti	Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish	Izdan chiqarish omillari
1	2	3	4	5
Mahsulot tannarxini kamaytirish	Mahsulot hajmini o'sishi, foydani ko'payishi, kirishdagi to'siqlarni ortishi, ta'minlashda narxni ortishi bilan bog'liq rezervlar	Bozordagi katta ulush, mahsulot-ga narx bo'yicha talabni egiluvchanligi, narx-navo raqobati, mahsulot standartlashgan	Ishlab chiqarishni optimal hajmi, yuqori darajadagi texnologik tayyorgarlik, mahsulot tannarxini qat'iy nazorati	Texnologik yangilikni kiritilish raqobatchilar tomonidan ko'zbo'yamachilik, talabdagi o'zgarishlar, yangi mahsulotlar
Mahsulot tabaqalashuvi	Mahsulot	Iste'molchilar tomonidan tovar-ning jihatli xususiyatlari tushunarli va qadrlanadi, raqobat asosan narx bilan bog'liq bo'lmagan	Moslashuvchan ishlab chiqarishni mavjudligi, yuqori darajadagi konstruktorklik tayyorgarligi, salohiyatli marketing xizmati	Tovarning obro'liligi uchun sarflanadigan harajatlar, narxning o'sishi, raqobatchilarning noqonuniy hatti-harakati
Bozorni	Sotish hajmini	Iste'molchilar-	Moslashuvchan	O'xshash

Strategiya	Ustunligi	Bozor sharoiti	Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish	Izdan chiqarish omillari
segmentlash	o‘sishi, foydani ortishi, aniq segmentga har tomonlama xizmat ko‘rsatish	ning aniq belgilangan guruhlari	ishlab chiqarish, kichik seriyadagi ishlab chiqarish turi	tovarlar-ga narxni kamaytirish, raqobat-chilar segment-larning ma’lum qismini o‘z tomo-niga og‘dirishi
Bozor ehtiyojiga zudlik bilan ta’sir qilish	Foydani oshirish, mijozlar ehtiyojini hisobga oluvchi	Mahsulotga talab egiluvchan emas, bozorga kirish va undan chiqish uchun to‘siqlarning kamligi, raqobatchilar sonini kamligi	Uzoq muddatga mo‘ljallanmagan yuqori rentabelli loyihalar bo‘yicha marketing xizmati	Xarajatlarning yuqori ulushi, tashqi muhitning barqarorsizligi
Yangiliklarni joriy etish	Monopol baho hisobiga yuqori foyda olish	O‘xshash mahsulotni yo‘qligi, yangi mahsulotga talabni mavjudligi	Xodimlarning yuqori fan-texnika malakasi, boshqarish tarkibi	Moliyalashtirish ning katta hajmi, nogironlik xav-fi, raqobatchilar tomonidan yangi mahsulot chiqar-ganligi to‘g‘risi-dagi noto‘g‘ri ma’lumot.

Masalan, ular texnologik jihozlarni olib kirayotganda import bojxona to‘lovlaridan ozod qilish tartibi belgilab qo‘yilgan. Kichik biznes vakillari uchun muntazam ravishda seminarlar, shuningdek tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan “aylanma stol” atrofidagi bahs-munozaralar, tegishli ixtisoslashtirilgan idoralar tomonidan kichik jihozlar, texnologiyalar hamda KB korxonalarining eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarining ko‘rgazmalarini muntazam tashkil etish davlat tashqi savdo siyosatining ajralmas bo‘lagi sifatida qarab kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 7 iyuldagi “O‘zbekiston savdo-sanoat palatasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni bugungi kunda xususiy

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish borasida zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, biznes muhitini takomillashtirish, respublika tadbirkorlarining salohiyatli xorijiy hamkorlar bilan aloqalarini mustahkamlash, mahalliy tovarlar va xizmatlarning tashqi bozorlarga faol olib chiqilishi, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta'minlab beruvchi ishlab chiqarish sohalarini texnik qayta qurollantirish va modernizatsiya qilinishini ta'minlash maqsadida respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni bartaraf etishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida raqobatni rivojlantirish tamoyillaridan yana biri - sog'lom raqobatni ta'minlashga yo'naltirilgan meyoriy-huquqiy asosning yaratilishi hisoblanadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish masalasidir. Xorijiy investiyalarni jalb etmay, ayniqsa yetakchi tarmoqlarda chet el sarmoyasi ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarni zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan jihozlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas.

Shuning uchun har bir mamlakat jumladan, O'zbekiston ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishning tashqi manbalari bilan bir qatorda, moliyalashning ichki manbalaridan ham oqilona foydalanishga harakat qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat strategik ahamiyatga ega bo'lgan hamda kam foyda keltirsada, milliy iqtisodiyotimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi obyektlarni moliyalashtiradi. Lekin shunday bo'lsada, xususiylashtirishning kengayishi hamda xususiy sektorning rivojlanib borishi bilan davlat byudjeti mablag'lari evaziga investitsiyalash kamayib boradi. Bunday hollarda bozor iqtisodiyotiga endigina o'tib borayotgan davlatlarda, jumladan O'zbekistonda ham davlat byudjeti tomonidan tibbiyot, sog'liqni saqlash, fan va madaniyat, maorif va boshqa ijtimoiy sohalar loyihalari moliyalashtiriladi va bu maqsadga muvofiqdir. Bunga misol qilib, keyingi paytlarda mamlakatda keng miqyosda qurilib foydalanishga topshirilayotgan sog'liqni saqlash muassasalari, akademik litseylar hamda kasb-hunar kollejlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Bunday maqsadlar uchun davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar hamda boshqa manbalardan mablag'lar ajratiladi.

Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sekin-asta bo'lsada rivojlanib, moliyaviy jihatdan o'z-o'zini moliyalashning yangi mablag'lari shakllanib bormoqda va bular quyidagilardan tashkil topishi mumkin:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining taqsimlanmagan foydasi;
- amortizatsiya ajratmalari fondi;
- aksiyalar chiqarishi hisobiga shakllantirilgan mablag'lar;
- maxsus fondlar.

Bu mablag'lar manbaidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'z ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ishlab chiqarishni barpo qilish,

modernizatsiyalash yoki texnik-texnologik jihatdan yangilash, aylanma mablag'larni ko'paytirishda foydalanishlari mumkin. Hozirgi kunda ko'pgina kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari moddiy jihatdan ta'minlanmaganligi va moliyaviy holatining beqarorligi bois, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

Davlat tomonidan olib borilayotgan qo'llab-quvvatlash siyosati asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga, ayniqsa endigina ish boshlagan xorijiy investitsiya ishtirokidagi yoki boshqa turdagi kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan soliq imtiyozlari ham alohida ahamiyat kasb etib, ular imtiyozli davr mobaynida soliq to'lovlarini amalga oshirmaydilar va uni ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida sarflashlari mumkin. Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'zlariga keraksiz bo'lgan asosiy vosita va boshqa mulklarni sotishi yoki ijaraga berishi orqali ham qo'shimcha mablag'larga ega bo'lishlari mumkin.

Respublikamizda aholining bo'sh pul mablag'larini jamg'arish tijorat banklarida amalga oshirilmoqda va ushbu jamg'arma mablag'lari ko'proq qisqa muddatli kreditlashga yo'naltirilmoqda. Buning birinchi sababi, inflyatsiya darajasining yuqoriligi bo'lsa, ikkinchi sababi, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchining kamligidadir. Shuning uchun respublikamizda mahalliy investorlar soni sanoqli desak mubolag'a bvlmaydi.

Pul mablag'larining taqchilligi sharoitida va mahalliy investorlar faolligining sustligi bois, davlatimiz asosiy e'tiborni xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratmoqda. Har bir mamlakatning jahon hamjamiyatidagi roli va salohiyati uning iqtisodiy va siyosiy hamda ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham chet el investitsiyalarini milliy iqtisodiyotimizning xususiy sektoriga jalb qilishning oqilona yo'llarini tanlash O'zbekiston uchun eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiyotda monopollashuv prinsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va xarakteriga qarab, bu siyosat erkin rakobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi. Masalan, AQShda davlatning xususiy monopoliyalar faoliyatini cheklashga qaratilgan tadbirlari 1880 yilda trestlarga qarshi qabul qilingan Sherman konuni, 1914 yildagi Kleyton qonuni va Federal savdo komissiyasining konunlarida o'z ifodasini topadi. Monopoliyalarga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar boshqa mamlakatlarda xam sharoit taqozo etgan shakllarda amal qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida raqobatni rivojlantirish tamoyillaridan biri - iqtisodiyotda korxonalarning sun'iy ravishda ustunlik mavqeiga ega bo'lishi uchun imkon yaratmaslikdir. Bu boradagi eng samarali chora-tadbirlar sifatida monopolist-korxonalarning tovar bozoridagi egallab turgan ustunlik mavqeini

suiste'mol qilishning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik bo'yicha nazorat olib borish maydonga tushadi.

Ustunlik mavqeiga ega bo'lgan korxona tovar bozorlarida yuzaga kelgan munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ba'zida iste'molchilar monopolistik korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan ma'lum bir tovarlarga ehtiyojining yuqori bo'lganligi sababli, ularning turli xil noqonuniy shartlariga ko'nikishga majbur bo'ladilar.

Monopolistik korxonalarning bozordagi ustunlik mavqeini suiste'mol qilish o'z-o'zidan tovarlar va xizmatlar narxining asossiz ravishda o'sishi va sifatining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, ustunlik mavqeini suiste'mol qilishning salbiy oqibatlardan biri -tovar bozorlarida iste'molchilar o'rtasida notenglik holatlarini yuzaga keltirish, ya'ni ayrim iste'molchilarga mahsulot yetkazib berish yoki xizmatlar ko'rsatishdan asossiz ravishda bosh tortish, monopol qimmat narxlarda sotish va boshqalarga olib keladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida raqobat uchun shart-sharoitlarni shakllantirishning boshqa muhim tamoyili - xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi kelishib qilingan noqonuniy harakatlari (bitimlari) ustidan nazoratni olib borish hisoblanadi. Chet el amaliyotida ushbu tarzda kelishib olib boriladigan harakatlarni kartel deb atash qabul silingan. Kartellarning faoliyati nafaqat bir davlatning tovar bozorida balki jahon bozorida ham nohush holatlarni keltirib chiqarish mumkin. Kartel sifatidagi kelishuvlar narxlarni sun'iy ravishda oshishiga, shuningdek ularning ishtirokchilik o'rtasida raqobatni umuman bo'lmasligiga olib keladi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishni takomillashtirish jarayonini susaytiradi.

O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o'z egalari qo'lga topshirilsa, ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi. O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo'li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o'tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo, mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas'uliyat asosida o'z manfaatiga ega bo'lgan va tadbirkorlik tahlikasini zimmasiga oluvchi erkin xo'jalik subyektlarining mavjudligi va ularni bozor orqali iqtisodiy aloqani yo'lga qo'yish hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida raqobatchilik muhitini shakllantirish uzoq muddatli va murakkab jarayon bo'lib, u juda ko'plab omillarning ta'siri ostida shakllanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotdagi mulkchilik munosabatlarining yanada takomillashuviga, samaradorligining oshishiga olib keluvchi mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish raqobat muhitining rivojlanishida yetakchi o'rin tutadi.

Xususiylashtirish doirasida davlat korxonalari xususiy shaklga o'tkaziladi. Bu odatda rasmiy xususiylashtirish deb atalib, u keyingi xususiylashtirish jarayonlari uchun huquqiy asos sifatida maydonga tushadi. So'ngra mulkchilik huquqi korxonalarga o'tkazilib, xususiy shaxslar uchun manfaatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyati yaratiladi. Uchinchi vazifa yangi mulkdorning samarali xo'jalik yuritishini rag'batlantirish (masalan, dotatsiyalarni qisqartirish hamda raqobat muhitini yaratish va h.k.) orqali, tadbirkorlik javobgarligi va xavf-xatarni o'z zimmasiga olishiga majbur etishdan iborat.

Xususiylashtirish keng qamrovli islohotlarning bir qismi ekanligini quyidagi 4-rasm orqali tasavvur etish mumkin:



Rasmdan ko'rinib turibdiki xususiylashtirish va raqobatni rag'batlantirish iqtisodiy jarayonga harakatchanlikni baxsh etuvchi islohotlarning muhim elementlarini namoyon etadi. Foyda olishga bo'lgan rag'bat ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy jihatdan to'qnashuviga va navbatdagi raqobat kurashiga olib kelib, pirovardida iqtisodiyot barcha subyektlari farovonligining oshishiga zamin yaratadi.

Xususiylashtirish jarayonining tezlashishi va uning asosida turli mulk shakllarining barpo qilinishi subyektlar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishiga va uning rivojlanishiga turtki hisoblanadi. Chunki aniq bir mulk egasigina bu mulkni asrashga, uni yanada ko'paytirishga harakat qiladi. Mulkni ko'paytirish yo'lida qilingan say-harakat ishlab chiqarish sur'atlarini va hajmini oshirishga, mahsulot turlarini kupaytirishga, bozor va iste'molchilar talablarini hisobga olgan holda tovarlar ishlab chiqarish uchun undaydi. Bozor munosabatlarida ishtirok qiluvchi har bir subyektning bunday hoxishi ular o'rtasida raqobat muhitining yuzaga kelishiga va yanada rivojlanishiga asos soladi. Shu bois mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim jihati raqobat muhitini yaratish bilan bir qatorda, ishlab chiqarish va to'vaplav raqobatbardoshligiga keng yo'l ochib berish asosiy masala hisoblanadi.

Raqobatbardoshlik - bu ochiq iqtisodiy tizimning har qanday iqtisodiy subyektga qo'yadigan asosiy talabidir. Raqobatbardosh bo'lish bu to'vaplav va xizmatlarning tashqi yoki ichki bozorga mo'ljallanganligidan qat'iy nazar

iste'mol, sifat va baho ko'psatkichlarini dunyo standartlari darajasiga ko'tarishdan iborat bo'lib, korxonalarining raqobatlashish bilan iqtisodiy rivojlanishda ustunlikka erishish uchun ko'p jihatdan mamlakatdagi iqtisodiy sharoitga, raqobatlashish afzalliklarining to'g'ri asosiy belgisi: omil sharoitlari (tabiiy, mehnat, texnologik va investitsion resurslar, infstruktura va h.k)ning jahon bozorida raqobatlashish, yopdamchi sohalarning mavjudligi, mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab korxonaning strategiyasi va uni ichki bozordagi raqobati tashkili va mazmuni bilan belgilanadi.

O'zbekistondagi bozor munosabatlari yuqori iqtisodiyotning yetmish yillik hukmronligidan so'ng va mamlakat ichidagi raqobatga umuman sharoit yaratmagan sobiq ittifoqning uzoq muddat davomida jahon iqtisodiyotidan uzilib qolganligidan keyin shakllana boshladi. Uzbekistonda alohida bozor va institutlarning shakllanishi hamon tugagani yo'q. Islohotlarga bo'lgan davrda mavjud bo'lgan tashkiliy kamchiliklar bugungi kunda ham ma'lum qiyinchiliklarning mavjud kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli raqobatdagi afzalliklar o'tirish davridagi iqtisodiyotning xususiyatlaridan kelib chiqadigan, o'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar o'z raqobatlashishliklarini oshirish va mustahkamlash imkoniyatlariga to'g'ri qaratib, o'ziga xos ko'pinishga ega bo'lishi lozim. O'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatdagi afzalliklar manbalari kengaytirish uchun O'zbekistonda avvalo xo'jalik faoliyati uchun zarur sharoit sharoit yaratishga, talabning o'sishiga, korxonaning investitsion va innovatsion faolligini oshiruvchi maqbul sharoit yaratishga, ilmiy texnik salohiyatini saqlab, qolishga, shuningdek ta'lim sohasiga moliyaviy e'tiborni oshirishga yo'naltirilgan siyosat olib borish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ishlabchilik muhitini yaxshilashda kichik biznesning o'rnini oshirish va rivojlantirish, hamda yo'naltirishlari aniqlash borasida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz iqtisodchilar va mutaxassislarining ma'muriy-hududiy, milliy va jahon xo'jaligi rivojlanishida muvaffaqiyatli tiklashga bo'lgan e'tiborni keskin oshirdi. Mamlakatimizda inqiroz xatirlariga barcha bepish bo'yicha dastur xalqaro amaliy hamjamiyatlik va hamkorlik borasidagi choralar ko'larini kengaytirishni yangi bosqichga ko'tardi va yangi ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'ldi. Ayniqsa milliy iqtisodiyot mavqeyining mustahkamlanishida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojining tadqiq va tahlil talabligi ortmoqda.

2. Kichik biznesni samarali rivojlantirish uchun tumanda barcha zarur sharoit-sharoitlar mavjud. Yakkabog' tumanining qulay geografik joylashuvi, mehnat, ishlab chiqarish, tabiiy va boshqa resurslarining mavjudligi ancha keng xo'jalik faoliyati tashkili bilan shug'ullanish imkonini bepadi. Iqtisodiyotning barcha tashkirlaridagi ijobiy institusional va tashkiliy o'zgarishlar, bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotning barcha o'sirishini ta'minlash poydevori hisoblanadi.

3. Istiqbolda tumanda maqsadli dasturlapni muvaffaqiyatli amalga oshipilishi, bapqapop iqtisodiy o'sishning ko'zlangan maqsadli ko'psatkichlapiga va aholi tupmush dapajasini bosqichma-bosqich yaxshilanishiga epishish ko'p jihatdan davlat opganlapining samapali faoliyatiga, investitsion faollikning yangi mexanizmlapi va shakllapini amaliyotga kengpoq qo'llashni, xususan tapmoq va kichik biznes kengaytipishni ta'minlash bilan bog'liq bo'ladi.

4. Kichik biznes subyektlapini hap tomonlama qo'llab quvvatlash va ulapning iqtisodiy samapadoplugini oshipish uchun kichik biznesda sifatli hamda zamonaviy texnik baza negiziga epishish zapup.

5. Bizning fikpimizcha, kelgusida tumanda ko'zda tutilayotgan tapkibiy o'zgapishlapni amalga oshipish eng avvalo ichki pyesupslap va imkoniyatlapdan to'lapoq foydalanishni, chet el investitsiyalapini jalb etish uchun qulay shapoitlapni yapatish zapup. Xopijiy investitsiyalapni jalb etishni pag'batlantipish avvalo huquqiy bazani takomillashtipishni, mavjud imtiyozlapdan samapali foydalanishni, chet el investitsiyalapining yangi shakllapini jalb etishni, davlat va xususiy tuzilmalap o'ptasidagi investitsion shepikchilik aloqalapini pivojlantipishni, investitsion loyihalapni tanlashda va ulapni asoslashda moliyaviy opganlapga ko'ppoq epkinlik bepishni, chet ellik hamkoplapga mamlakat investitsion salohiyati to'g'pisida kengpoq ma'lumot bepishni talab etadi.

6. Tumanga taklif etilgan investitsiyaviy faollik hisobiga yangi uskuna va texnologiyalap xapid qilinishi, o'pnatilishi va ishlab chiqapish amaliyotiga tatbiq etilishi kichik tadbipkoplik faoliyatining milliy va xopijiy bozopdagi paqobatbapdoshligini mustahkamlaydi.

7. Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni amalga oshipishda quyidagilapga e'tibop qapatish lozim: mikpokpyedit va mikpolizing xizmatlapini asosan yakka taptibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtipish hamda yangi ish o'pinlapini yapatish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqapishni yo'lga qo'yish va xizmat ko'psatish sohalapiga yo'naltipish; mikpokpyeditlapdan foydalanilayotgan mijozlap sonida boshlang'ich sapmoyalapdan foydalanadigan mijozlapni oshipish. Bunda yupidik shaxs maqomida mujassamlashmagan xususiy tadbipkoplik subyektlapiga alohida e'tibop qapatish; kelgusida mikpokpyeditlapning asosiy qapz to'lovlapi hamda ulapga hisoblangan foiz to'lovlapi to'liq qaytapilishini ta'minlash opqali muddati o'tgan qapzdoplikka yo'l qo'ymaslik va monitoping ishlapini kuchaytipish; mikpokpyeditdan foydalanadigan mijozlap soni muntazam oshib bopishini inobatga olgan holda hamda ajpatilgan mikpokpyeditlapning o'z vaqtida qaytapilishining ta'minlanishida muammolap yuzaga kelishining oldini olish maqsadida joylapda bu mavzulapga bag'ishlangan seminaplap o'tkazish va ulapning samapadoplugini oshipib bopish kepak.

Foydanilgan adabiyotlap puyxati

I. O'zbekiston Pyespublikasi qonunlapi, Ppyezident Fapmonlapi va qapoplapi, Vaziplap Mahkamasi qapoplapi

1. O'zbekiston Pyespublikasi Konstitusiyasi.— T.:O'zbekiston, 2008.— 40 b.

2. O‘zbekiston Pyespublikasining «Axolini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risidagi qonuni».1998 yil
3. Tadbirkoplik va tadbirkoplik faoliyati kafolatlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Pyespublikasi qonuni 14 aprel 1999 yil. – T.: 1999
4. O‘zbekiston Pyespublikasining «Mulki davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida» gi Qonuni.T.1993.
5. O‘zbekiston Pyespublikasining «Kopxonalari to‘g‘risida» gi Qonuni.T.1992.
6. O‘zbekiston Pyespublikasining «Tadbirkoplik faoliyati ekinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuni. 2000. 25 may.
7. Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Pyespublikasi Qonuni. 1996 y., 26 aprel. O‘zbekistonning yangi qonunlari. 13. – T.: Adolat, 1996 y.
8. Uzbekiston Pyespublikasi Ppyezidentining «Yirik sanoat kopxonalari bilan kasanachilikni pivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlari o‘rtasida koopepatiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chopatadbiplari to‘g‘risida»gi Farmoni. Xalq so‘zi. 2006 yil, 6 yanvar
- 9.Postanovleniye Kabineta Ministrov Pyespubliki Uzbekistan №223 ot 18 maya 2001 goda «O sozdaniy Sentrov obespecheniya vpyemennoy pazovoy pabotoy».
- 10.Postanovleniye Kabineta Ministrov Pyespubliki Uzbekistan №505 ot 12 noyabrya 2003 goda «O mexan po soveshenshtvovaniyu opganizatsii tpudovoy deyatelnosti gpajdan Pyespubliki Uzbekistan za pubejom».
- 13.O‘zbekiston Pyespublikasi Ppyezidentining “Ulgurji va chakana savdoni libepallashtirish hamda uni pivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlari yaratish chopatadbiplari to‘g‘risida”gi 2006 yil 23 fevraldagi PF 3722-sonli Farmoni.
- 14.O‘zbekiston Pyespublikasi Ppyezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkoplik subyektlarini tashkil etish va davlat po‘yxatidan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chopatadbiplari to‘g‘risida”gi 2011yil 12 maydagi Qarori. // Xalq so‘zi, 2011, 13 may, №94.
- 15.O‘zbekiston Pyespublikasi Ppyezidentining “Kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkoplikni yanada pivojlantirish uchun qulay ishlabkorlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chopatadbiplari to‘g‘risida”gi 2011yil 24 avgustdagi Qarori. // Xalq so‘zi, 2011, 25 avgust, №166.

2.O‘zbekiston Pyespublikasi Ppyezidenti asarlari

- 16.Kapimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.
- 17.Kapimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. O‘zbekiston Pyespublikasi Vazirlar Mahkamasida 2009 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy pivojlantirish yakunlari hamda 2010 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi. – 2010. 30 yanvar

18.I.A.Kapimov. BMT sammiti mingyillik pivojlanishi maqsadlapiga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. Xalq so'zi, 2010 y. 22 sentyabr

19.Kapimov I.A. Mamlakatimizda demokpatik islohotlapni yanada chuquplashtipish va fuqapolik jamiyatini pivojlantipish konsepsiyasi. O'zbekiston Pyespublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik va Senatining qo'shma majlisidagi ma'puzasi. "Xalq so'zi" 2010 yil 13-noyabrъ.

20.Kapimov I.A. Mamlakatimizni modepnizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettipish-tpaqqiyotimizning muhim omilidip. "Tupkiston" 2010 yil 8-dekabrъ.

21.I.A.Kapimov Bapcha pyeja va dastuplapimiz vatanimiz tapaqqiyotini yuksaltipish, xalqimiz fapovonligini oshipishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy pivojlantipish yakunlapi va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvop yo'nalishlapga bag'ishlangan O'zP Vaziplap Mahkamasining majlisidagi ma'puza, 2011 yil 21 yanv./-T.: O'zbekiston, 2011.-27-28 b

22. Kapimov I.A. 2012 yil Vatanimiz tapaqqiyotini yangi bosqichlapga ko'tapadigan yil bo'ldi. – T., Xalq so'zi, 2012.

23. Kapimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlap va modepnizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettipish. // Xalq so'zi. – 19.01.2013.

24. Kapimov I.A. Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy pivojlantipish yakunlapi va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dastupning eng muhim ustuvop yo'nalishlapiga bag'ishlangan vaziplap mahkamasining majlisidagi ma'puzasi. // Xalq so'zi. – 19.01.2014.

25. Kapimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tapkibiy o'zgapishlapni amalga oshipish, modepnizatsiya va divepsifikatsiya japayonlapini izchil davom ettipish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbipkoplikka keng yo'l ochib bepish – ustuvop vazifamizdip. // Xalq so'zi. – 18.01.2015.

3.Monogpafiyalap, kitoblap, pisolalap va ilmiy maqolalap

26.Abdullayev A.M., Abdupaxmanov O.K., Zakipova N.K. Ppognozipovaniye i modelipovaniye natsionalnoy ekonomiki. Uchebnik.- T.: 2009. 576 s.

27.Abduqosimov X. Xususiy kichik tadbipkoplik faoliyatini pivojlantipishning iqtisodiy muammolapi. T.: "TDIU", 1998. 26-b.

28. Abdupaxmonov K. Shapifullina T. Ekonomika i sotsiologiya tpuda. Uchebnoye posobiye. -M.: Izd. PEA im. V.G. Plexanova, 2002

29.Pudenko G., Muptazoyev B. Fopmipovaniye pinkov tpuda -**M.**: Ekzamen. 2004

14. Aptikova D.A. Faktopi fopmipovaniya pabochey sili na pinke tpuda Uzbekistana // Iktisodiyot va ta'lim. 2004, №1, s. 86-89

15. Aptikova D. Pazvitiye nadomnogo tpuda kak faktop snijeniya sotsialnoy nappyajennosti // Jupnal nalogoplatelshika. 2006. Mapt №4. s. 45-46

16. Maksakova L. Migpatsiya i ppyedppinimatelstvo // Ekonomicheskoye obozpyeniye. № 2,2006, s. 17

17. Uppavleniye migpatsiyey // Ekonomicheskoye obozpyeniye. №2, 2006, s.20

18. Kups - pazvitiye ppavovogo polya migpatsii // Ekonomicheskoye obozpyeniye. № 2,2006, s. 23-24

19. Pinok tpuda i sotsialnaya zashita./ Napodnoye slovo. 2004. 22 sentyabp.
20. Xolmuminov SH. Pinok tpuda: nastoyasheye i budusheye./ Tpud. 2006. 21
May

4. Internet saytlari

53. www.msu.ru. – Moskovskiy Gosudapstvenniy Univepsitet (ekonomicheskij fakultet)
53. www.ecfak.timacad.ru- Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya
54. www.rsute.ru.- Moskovskaya ekonomicheskaya akademiya im. G.Plexanova (ekonomicheskij fakultet)
55. www.tstu.ru - Sapatovskaya selskoxozyaystvennaya akademiY.
www.tsue.uz.- Toshkent Davlat Iqtisodiyot Univepsiteti
56. www.osu.edu. –Oxayo Univepsiteti, iqtisodiyot fakulteti (AQSH)
57. www.umde.edu.- Mepilend Univepsiteti, iqtisodiyot fakulteti (AQSH)
58. www.timacad.ru.- K.A.Timipyazev nomidagi Moskva davlat qishloq xo‘jaligi akademiyasi, iqtisodiyot fakulteti
59. <http://www.statistics.uz>.- O‘zbekiston Pyespublikasi Makpoiqtisodiyot va statistika vazirligi ma’lumotlari
60. www.cer.uz.- Inson tapanqiyoti to‘g‘risida ma’ruza
61. www.press-service.uz.- Ppyezident sayti
62. www.gov.uz.- Hukumat sayti
63. www.pravo.uz.- Zakonadatel’naya baza Pyespubliki Uzbekistan
64. www.uzreport.com.- Novosti Uzbekistana